

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo'lyozma huquqida
UDK

BARATOVA SEVARA MUSAXONOVNA

Mumtoz hikoyachilik: TADRIJ VA TAKOMIL

5A111201-O'zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
f.f.n., dotsent Siddiqov M

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Fakultet: Filologiya

magistratura talabasi: S.M.Baratova

Kafedra: o'zbek tili va adabiyoti

Ilmiy rahbar: docent M.Siddiqov

O'quv yili: 2012-2013

Mutaxassislik: o'zbek adabiyoti

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Mumtoz hikoyachilikning genezisi,

MUNDARIJA

Kirish.	3-10
I bob. Mumtoz adabiyotda hikoyatchilik va uning genezisi masalasi.....	11-31
1.1. Hikoya janrining nazariy asoslari va mumtoz hikoyachilikning mavzu yo'nalishlari.....	11-18
1.2. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining ruzaga kelishi va rivojlanish omillari.....	19-31
I bob ruzasidan xulosa.....	
II bob. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining tadriji va takomilida folklorning o'rni.....	32-57
2.1. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining shakllanish va takomilida folklor ta'siri.....	32-39
2.2. Alisher Navoiy hikoyatlari shakllanishida folklorning ta'siri	40-57
II bob ruzasidan xulosa.....	
III bob. O'zbek adabiyotida hikoyatlarning ruyaviy yo'nalishlari silsilasi va poetikasi masalasi.....	58-76
3.1. O'zbek adabiyotidagi hikoyatlarning ruyaviy yo'nalishlari silsilasi va takomili.....	58-66
3.2. O'zbek hikoyatlari poetikasining ayrim masalalari	67-75
III bob ruzasidan xulosa.....	
Xulosa.....	76-79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	80-82

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, ertimiz va xalqimiz istiqloлга erishilgandan buyon o'tgan davrlarda siyosat, mafkura va ijtimoiyotning turli sohalarida ulkan ertirilishlarni boshdan kechirdi va bu o'zgarishlar, tom ma'noda inson manfaatlariga yo'naltirilgani bilan ertiborlidir. Ayni cho'lda, bu jarayon jahon ma'naviy tamaddunida munosib mavqega erta bo'lgan o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi oldiga-da bir qator yangi va ma'suliyatli vazifalarni qo'yayotgani ham ayon. Milliy mafkuraning poydevori tiklanib, ma'naviy hayotda yangicha o'zgarishlar sodir bo'layotgan ushbu kezlarda ma'naviyatimizning barcha sohalarida tub islohotlar jarayoni ildamlashgani kuzatilmoqda. Bu badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik sohasida ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Keyingi ikki o'n yillik shunisi bilan ertiborliki, o'zbek xalqining uzoq asrlik boy madaniy va ma'naviy merosini o'rganish va tiklash, yaqin o'tmish asarlarini bugunda shakllangan tahlil tamoyillari asosida baholash borasida bir talay xayrli ishlar amalga oshirildi. Aslida ham, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz"¹ - degan purma'no so'zlari mumtoz adabiyotimizni o'rganib, tarfiyb ertuvchi adabiyotshunosligimiz uchun taalluqlidir.

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti o'zining boy an'analari bilan boshqa xalqlar adabiyoti bilan bellasha oladigan lirik va epik merosiga erta. Bu adabiy meros faqat ularning mazmuniy yo'nalishlaridagina emas, balki shakliy xilma-xilligida ham ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, epik ko'lamli asarlarning bir qadar ko'pligi, ularning lirik asarlar bilan bir xil mezonlarda o'z bahosini olib kelayotgani diqqatga loyiqdir. Lirik mazmundagi asarlar ijodkorning ichki tuyfularini ifodalashi bilan qaysidir ma'noda mazmuniy yakranglik hosil qiladi va ularga berilayotgan baholarda ham mushtaraklik seziladi. Biroq epik asarlarning har biri,

¹ Каримов И.А. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида : ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари". Т. "Ўзбекистон".1997.-Б.137.

nazarimizda, o'ziga xos bir olam sifatida lirik asarlardan ajralib turadi. SHundanmi, ularni tahlil va tadqiq o'tishda va baholashda bir qadar farqlanishlar seziladi. O'tmish adabiyotimizda yaratilgan epik ko'lamli asarlar bilan zamonaviy asarlar qiyosi hamda ularga berilgan baholar shunday xulosalar chiqarishga imkon beradi. Va ta'kidlash o'rinliki, epik janrlardan biri hisoblangan hikoyachilikda bu holat alohida ajralib turadi.

Hikoya janri bugunda paydo bo'lgan yoxud kuni kecha urfga kirgan adabiy janr emas. Uning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Bu janr boshqa adabiy janrlar qatori sinkretik tarzda paydo bo'lib, tadrij va takomil jarayonida kamolga etib borgan. Miloddan avvagi davrlar yoki milodning ibtidosida yaratilgan hikoyalar yoxud o'rta asrlar va bugungi hikoyachilik o'zaro solishtirilib ko'rilsa, ularning ham shakli, ham mazmunida ko'z ilfarli tafovutlar borligini sezish qiyin emas. Ana shu tafovutlar bugungi hikoyachilik borasidagi nazariy qarashlar bilan tadqiq etilsagina, ularga kerakli baholarni berish mumkin bo'ladi. Bunda esa, hikoyachilikning tadriji va takomili jarayoni diqqat markazida turadi. Magistrlik dissertatuiyamiz mavzusining dolzarbligi ana shu omillar bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Badiiy hikoyachilikning nazariy asoslari V.G.Belinskiy, L.N.Timofeev, N.V.CHicherin, E.M.Melitinskiy, V.P.Skoblev, I.O.Sultonov, M.Qo'shjonov, B.Nazarov, O.SHarofiddinov kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Mumtoz hikoyachilikning shakliy va mazmuniy jihatlari borasida E.Ə.Bertel's, A.Hayitmetov, N.M.Mallaev, A.Abdurafurov, I.V.Stebleva, M.Mirzaahmedova va boshqalar ham bir qator ilmiy asoslangan fikrlarini xavola etanlar. Mazkur janrning speqifikasi, janriy belgilari va imkoniyatlari rozasidan qimmatli xulosalar taqdim etilgan. Farb va SHarq hikoyachiligi, romantik va realistik hikoyachilikdagi tafovutlar, ularning poetikasiga xos jihatlar rozasidan ham qator ishlar amalga oshirilgan.

O'zbek mumtoz hikoyachiligi bo'yicha o'lon qilingan tadqiqotlar (monografiya va ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar)da mumtoz hikoyalarga ajratilishi darkor bo'lgan o'rinlar anchagina uchraydi. Mumtoz hikoyachilik tadriji va takomilini o'rganish qadimdan boshlangan, deyilsa mubolafa bo'lmaydi,

bizningcha. Zero M.Koshfariyning “Devonu luʼfatit turk” asarining muqaddimasida oʻzaki adabiyotda paydo boʻlgan afsona, ertak, rivoyat va shu kabi materiallarni keltirar ekan, ularning nazariy asoslari borasida ham soʻz ioritadi va bularni hikoyatchilikning ilk namunalari tarzida xulosalar chiqaradi.² Darhaqiqat, “Devonu luʼfatit turk” da keltirilgan mazkur asarlar ilk hikoyatlar sifatida baholanishga arziydi. Ularda hikoyachilik speuifikasini koʻrsatuvchi unsurlardan talayginasini uchratish mumkin. Qolaversa, bular toʻʼrisidagi muallifning nazariy qarashlari hikoyatchilikning ilk kurtaklari qadim-qadimlarga borib taqalishini koʻrsatadi.

SHarqshunos I.V.Steblevaning turkiy xalqlarning qadimgi poʻezisiga oid tadqiqotlarida ham hikoyachilik ancha qadim tarixga ega ekanligini, ular sinkretik shakllarda paydo boʻlib rivojlanib borganini koʻrsatuvchi dalillar borligini tasdiqlaydi.³

N.M.Mallaevning “Oʻzbek adabiyoti tarixi” nomi bilan chop eʼtilgan va salkam 50 yildan buyon filologik taʼlimda darslik sifatida foydalanib kelinayotgan tadqiqoti va “Navoiy va xalq ijodiyoti” monografiyasida ham yozma va oʻzaki adabiyotda yaratilgan hikoyalar, ularning tadriji, takomili masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan hamda oʻzbek mumtoz hikoyachiligi oʻsish-oʻzgarishda rivojlanib kelganligini dalillab bergan.⁴

B.Valixoʻjaevning “Oʻzbek eʼpik poʻezisi tarixidan” nomli monografiyasida oʻzbek va fors-tojik poʻeziyasida yaratilgan eʼpik koʻlamdagi masnaviylar tadqiq eʼtilar ekan, masnaviy hikoyalar toʻʼrisida ham qimmatli fikrlar xavola eʼtiladi va ularning oʻzbek hikoyachiligining tadrijiy takomilidagi oʻrniga alohida ilmiy baholar beriladi.⁵

A.Abdurafurovning “Besh burok xazina” nomli ishida mumtoz hikoyachilik xususiyatlarini Alisher Navoiy hikoyatlari misolida isbotlashga harakat qiladi. Unda “Hayrat ul-abror” dostonidagi bir qator hikoyatlar tanlab olinadi, tahlil

² Қошғарий Махмуд. Девону луғатит турк, Уч томлик, 1 том. – Тошкент, 1960, 98, 175-б.

² Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. II жилд. – Тошкент, «Фан», 1992, 199-б.

³ Стеблева И.В. Поэзия тюрокв VI-VIII веков. – М., «Наука», 1965, 71-98-б.

⁴ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиётитарихи. Т., “Ўқитувчи”, 1976.

⁵ Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент, «Фан», 1976.

qilinadi va o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi, o'sishi va takomilida alohida o'rni borligi, mavzu yo'nalishlari, shakliy mukammalligi bilan alohida ajralib turishini ta'kidlagan.⁶

S.Hasanning "Etti sayyora mo'jizasi" nomli ishida "Sab' ai sayyor" dostoni va undagi etti hikoyani tahlil etib, bu hikoyalarning butun SHarq adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida alohida o'rni borligini fors-tojik adabiyoti, hind mumtoz adabiyotidagi hikoyalar bilan taqqoslab ta'kidlash barobarida, ularning mumtoz hikoyachilikning rivojida ahamiyatini ko'rsatib beradi.⁷

Bulargina emas, boshqa ishlarda o'zbek nasri xaqida gap borar ekan, mumtoz hikoyalarni ham ana shu yo'nalishlarda, keng miqyosda, ya'ni monografik rejada jiddiy tekshirish vazifasini adabiyotshunosligimiz oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot rejalari bilan borliqligi. Qo'qon Davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti kafedrasining "O'zbek adabiyotida komil inson muammosi" umumiy rejalari bilan borliq bo'lib, ish natijalaridan mumtoz o'zbek adabiyotiga doir tadqiqotlar yaratishda foydalaniladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek mumtoz hikoyalarini adabiyotshunosligimizda qaror topib borayotgan yangicha tamoyillar asosida tadqiq etish va bu hikoyalardagi eng maqbul belgilarni oldingi rejaga olib chiqishdan iborat. SHunga ko'ra, mazkur tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutiladi:

- hikoya janrining, jumladan mumtoz hikoyachilikning speçifikasi va janroviy xususiyatlari borasida muhtasar xulosalarni taqdim etish orqali mazkur janrning nasrning boshqa janrlari orasidagi mavqeyini aniqlash hamda bu jarayonda hikoyachilikning tadrijiy mezonlarini ko'rsatish;

- hikoyachilikdagi an'ana va tamoyillarning qay tarzda shakllanganligi hamda tadrijiy takomil topganligini dalillash hamda folklor va yozma adabiyotda hayot

⁶ Абдуғафуров А. Беш буюк хазина. Т., "Фан", 1989.

⁷ Хасанов С. Етти сайёра мўъжизиси. Т. 1987.

hodisalarini badiiy idrok etish va tasvirlash usullarini o'rganish, bular asosida mumtoz hikoyachilikda mavzular tasnifi hamda tadqiqini berish;

- hikoyalarida muayyan mavzu hamda qahramonlar yaratish masalasi, ulardagi badiiy foya va shakl xususiyatlarini tadqiq etish;

- obraz yaratish mahorati, hikoya sjojeti, kompozitsiyasi, konflikt, kolliziya va til masalalarda badiiy izlanishlar hamda erilishgan iotuqlarni ilmiy-nazariy rejada yoritish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mumtoz hikoyalarning o'zbek hikoyachiligida tutgan mavqei, bu hikoyalardagi mavzu rang-barangligi va shakliy xilma-xillik, ularning badiiy-uslubiy o'ziga xosligi maxsus monografik tekshirish sifatida o'rganilmoqda. Mumtoz hikoyalarning o'zbek hikoyachiligidagi o'rni va mahorat masalalarini ilmiy baholash asnosida mazkur janrga xos quyidagi jihatlarni yoritish ishning ilmiy yangiligi hisoblanadi:

- mumtoz hikoyalarning tasvir manbalari, ularga xos etakchi xususiyatlar shu milliy zaminning o'zidan, real voqelikdan, zamon ehtiyojlaridan iozaga kelganligining alohida yoritilganligi;

- mumtoz hikoyachilik sinkretik mazmun va shakldan mukammallik sari o'sib borganligini ilmiy dalillash;

- mumtoz hikoyachilik adabiy aloqalar va adabiy ta'sir natijasi o'laroq, folklor an'analari, fors-tojik yozma adabiyoti, arab va hind adabiyotidan muayyan darajada oziqlanganligini ko'rsatish;

- mumtoz hikoyalarning tasvir usullarida tafovutlar iozaga kelganligi, yangirgan talqin va timsolar yangicha badiiy talqin usullarini talab etganligini, hayot chigalliklari, inson dunyosini, ularga xos ilohiy va dunyoviy go'zallik mohiyatini ochish, ruhiy dramalar mohiyatiga etib borish san'atining ko'rsatilganligi;

- mumtoz hikoyalarning sjojet va kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklar, ulardagi konflikt, kolliziya, so'z timsollarning maydonga chiqish usullaridagi tadrijiy jihatlarning asoslanganligi;

- mumtoz hikoyalarda qahramon yaratish mahorati, hayot hodisalari va inson shaxsiga an'anaviy hamda yangicha yondashuv natijasida mohiyatning ochib berilganligi;

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat va uning uzviy tarmoqi bo'lgan badiiy adabiyot borasidagi ko'rsatmalari, shuningdek o'zbek va rus adabiyotshunos olimlarining hikoyachilik va undagi badiiy mahorat masalalariga barishlangan asarlaridagi yo'l-yo'riqlar tashkil qiladi. Ayni cho'qda, E.Ə.Bertels, N.M.Mallaev, A.Hayitmetov, N.Komilov, A.Abdufurov, B.Valixo'jaev, B.Nazarov, U.Normatov, B.Sarimsoqov, I.Haqqul va boshqa mualliflarning asarlari hamda ilmiy maqolalarida hikoyachilik sohasidan ilgari surilgan fikrlarga tayanildi. Tadqiqotda badiiy tahlilning qiyosiy-tipologik metodidan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar. Havola etilayotgan dissertatsiyada mumtoz hikoyalar va ulardagi mualliflar mahoratiga tegishli jihatlariga asosiy e'tibor qaratilar ekan, quyidagi muammolarni himoyaga olib chiqilishini zaruriyat deb hisoblaymiz:

1. Mumtoz hikoyachilikning ilk sinkretik ko'rinishlari manbalari aniqlandi va ular to'rtisida ilmiy xulosalar xavola qilindi.
2. Mumtoz hikoyachilikning tadrijiy takomili masalasi alohida misollar asosida dalillandi.
3. Mumtoz hikoyachilikning sozaga kelish manbalari ko'rsatildi va bular tegishli xulosalar bilan asoslandi.
4. Mumtoz hikoyachilikning takomil yo'li folklor va alohida olingan adiblar hikoyatlari asosida tahlil etilib, hikoyachilik qay shakl va mazmunda taraqqiy topganligi isbotlandi.
5. Tahlil jarayonida mumtoz hikoyalarda badiiy mahorat masalalariga qisman e'tibor qaratildi.

Tadqiqot manbalari. Magistrlik dissertatsiyasiga asosiy manba bo'lib turkiy yozma adabiyotida Rabro'ziy, Alisher Navoiy, Xoja, Muqimiy yaratgan

she'riy va nasriy hikoyatlar asosiy manba vazifasini o'tadi. O'rni bilan, bu mualliflarning hikoyalari folklor va da Jaloliddin Rumiy, SHayx Sa'diy, Farididdin Attor kabi fors-tojik adabiyoti vakillari asrlaridagi ayrim bir hikoyatlarga taqqoslab borildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot materiallari, undagi kuzatish hamda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar o'zbek adabiyotida hikoyachilik tadriji va takmili, ulardagi badiiy mahorat masalalariga barishlangan ilmiy ishlar, risolalar, darslik hamda qo'llanmalar, o'zbek adabiyoti namoyandalarining adabiy portretlarini yaratishda muayyan ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Natijalarning joriy etilishi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari va materiallaridan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari uchun maxsus kurs va seminarlarda, shuningdek foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning ilmiy jamoatchilik e'tiboridan o'tishi. Ushbu dissertatsiya Qo'qon DPI magistratura bo'limida bajarildi hamda o'zbek adabiyoti kafedrasida muhokama qilinib, tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni ikkita maqolada o'z ifodasida topgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, har biri ikki fasldan uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 82 betni tashkil qiladi.

I bob. Mumtoz adabiyotda hikoyatchilik va uning genezisi masalasi

1.1. Hikoya janrining nazariy asoslari va mumtoz hikoyachilikning mavzu yo'nalishlari

Hikoya janri epik tur janrlari orasida alohida mavqega ega. Mumtoz va zamonaviy hikoyachilik o'zaro taqqoslansa, ular orasidagi tafovutlar ko'zga aniq tashlanib, mazkur janrning nazariy asoslari, ularning mavzu yo'nalishlari, shakliy xilma-xilliklari namoyon bo'ladi. SHu sababli hikoya janrining nazariy masalalariga hamda rivojlanish tarixiga muxtasar to'xtab o'tish zaruriyati turiladi.

Hikoya janri bir qator speçifik belgilari, poëtikasiga xos xususiyatlar va rivojlanish darajalari bilan epik turning yondosh janrlaridan farq qiladi va ayrim tomonlari bilan ularga yaqinlashib boradiyoxud muayyan mushtaraklik kasb etadi. Hikoya (hikoyat)⁸ janri o'zbek adabiyotining boshqa janrlari qatori adabiy an'analar hamda adabiy ta'sir natijasi o'laroq maydonga kelgan, folklorda va qaysi bir shoir yoki nosir ijodida юqori cho'qqiga ko'tarilgan. Agar biz eng qadimgi o'zaki adabiyot namunalaridan tortib, mutafakkir shoir Alisher Navoiyning epik

⁸ Биз бу ўринда ўтмиш ва бугунги адабиётшунослигимизда мазкур жанрни “хикоят” ёхуд “хикоя” деб номланишларига муносабат билдирмоқчи эмасмиз. Аслида бу атамаларни ёндош қўллаш моҳиятни ўзгартирмайди. Чунки бугунги ҳикоячилик ўтмиш ҳикоятчилигининг тадрижий такомил топган ва замонага мослашган кўриниши холос.

she'riyati, badiiy va ilmiy nasrigacha bo'lgan va undan to jadid adabiyotigacha, shuningdek, hozirgi zamon hikoyachiligiga qadar namunalarga nazar tashlasak, mazkur kichik janrning turfa ko'rinishlari ko'p va xo'b uchraganiga shohid bo'lamiz. Mazkur bo'lgan davrlarda paydo bo'lgan hikoyalar mavzu yo'nalishlarining turli-tumanligi, shakliy darajalanishining har xilligi, poetik jihatdan mukammal va nomukammalligi bilan e'tiborni tortmasdan qo'ymaydi.

Mumtoz o'zbek adabiyotida kichik hajmli voqeaband asarlar "hikoyat" atamasi bilan yoritilgani ayon. Bunday nomlanish bugunda ko'nikilgan "hikoya" atamasi bilan zidlik hosil qilmaydi, balki har ikki atama deyarli bir narsaning ikki nomi bo'lishi bilan mushtaraklikka ega. Negaki o'tmishda she'riy yoki nasriy shakllarda bitilgan shunday voqeaband asarlar bir xil atama bilan yoritilishida erish turoladigan sababning o'zi yo'q. Faqatgina bugunga kelib "hikoyat" o'z o'rnini "hikoya" atamasiga bo'shatib berdi xolos. Ayni paytda, "hikoya" janrining hajmi va qahramonlar miqdori, ba'zilarida сюжет chiziqlari kengaydi. SHunday hikoyalar paydo bo'ldiki, ular hajm, voqealar silsilasi, xarakter va qahramonlarining miqdori bilan qissa va roman janri darajasiga chiqib oldi. Bular "hikoya" janriga tegishli qonun-qoidalar nazariyaga oid kitoblarda nisbatan eskirganga o'xshash taassurotlarni yozaga keltirdi.

YOqorida ta'kidlab o'tilganidek, Alisher Navoiyning epik she'riyati, badiiy va ilmiy nasrida mazkur janrning ko'rinishlari ko'p uchraydi. Ular mavzu qatlamlarining turliligi, shaklining har xilligi, poetik mukammalligi bilan e'tiborni tortadi. Hazrat Alisher Navoiyga qadar ham ko'p hikoyalar yaratilgan va bu hikoyalar bir tomondan o'rzaki adabiyot, ikkinchi tomondan, hind, arab va fors-tojik hikoyachiligidan oziqlangan holda takomil bosqichiga ko'tarilgan. Mumtoz hikoyatlarning shakli va mundarijasiga nazar tashlansa, ularda bir qator o'xshashliklar kuzatiladi. Bu hikoyatlar ayrimlarida mustaqil asar maqomiga ega bo'lsa, boshqalarida boshqa bir voqelik tasviriga ilova qilingan bo'ladi. Aslida ham, hikoya badiiy janr sifatida tadrijiy takomil topib borar ekan, boshqa epik janrlar doirasida ustuvor ahamiyatga molik bo'lishi uchun tubandagi to'rt xususiyatni o'zida mujassam etmo'ri darkor: a) keltirilgan har bir hikoya mustaqil

asar maqomiga erishishi; b) epik janrlar doirasida qaror topgan an'analar ta'sirida takomil yo'llarini bosib o'tgan bo'lishi; v) har bir hikoyada qahramonlar timsoli va xarakteri shakllanganligi, asarda uning markaziy o'rinni tutishi; g) har bir hikoya yaxlit asar sifatida alohida poetikaga ega bo'lishi darkor. Agar ana shu belgilar mazkur kichik janrda to'liq namoyon bo'lsa, uning badiiy va ijtimoiy vazifasi to'kis ro'zaga keladi. Yana shuni qo'shimcha qilish joizki, "Hikoyaning asosiy xususiyatlaridan biri boy va rang-barang voqealar oqimidan eng asosiy momentlarning tanlab olinishidir. Lekin u umumiy hayot oqimidan ajralib olingan epizod emas. Hikoya boshlanguncha va u tugagandan so'nggi qahramon xarakteri kitobxonga qorovu bo'lib qoladi, deguvchi ayrim tanqidchilar fikrida jon bo'lsa-da, bu fikr janr xususiyatlaridan birini ma'lum darajada to'g'ri ifodalasa-da, uni mutlaq to'g'ri deb qabul qilishga asos bo'lolmaydi. Chunki hikoya shunday janrki, uning ayrim nurday tiniq va o'tkir shtrix, detallaridan qahramonning hikoya boshlangunga qadar va undan so'nggi xarakteri va taqdiri haqida tasavvur ola olish mumkin. Shu jihatdan hikoya kitobxonning o'zini ham qahramonlardan biriga aylantiradigan, undan mushohadakorlikni talab qiladigan, o'z fantaziyasi bilan kerak o'rinlarni to'ldirishni taqozo qiladigan janrlardan biridir, deyish mumkin"⁹.

Hikoyaning qanday shaklda (she'riy yoki nasriy) bo'lishi ahamiyat kasb etmaydi, bizningcha. Garchi bugungi tasavvurlar "hikoya" atamasini "novella", "rasskaz" doirasida tushunishga yo'naltirilsa-da, o'tmishida bu belgi birlamchi xususiyat bo'lib qolmagan. Hatto "Guliston", "Miftoh ul-adl"dagi hikoyalar nasriy usulda bitilgan bo'lsa ham, ayrimlarida adibning muayyan bir hikoya orqali demoqchi bo'lgan fikri nazm orqali (fard, ruboiy, qit'a v.x. she'riy shakllarda) havola etilgan. Binobarin, hikoyaning she'riy yoxud nasriy bo'lishi xususida aniq recept berilishi aslo mumkin emas.

Adabiyotimizning ibtidosiga nazar tashlansa, turkiy hikoyachilik nasrdan boshlanganligiga shohid bo'lish mumkin. Zero ajdodlarimiz tomonidan ijod qilingan dastlabki hikoyalar o'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib borgan. Ular

⁹ Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 1 жилд. Эпос. - Тошкент, «Фан», 1991, 67-6.

hajm jihatidan u qadar katta bo'lmagan. Bularga misol tarzda “Devonu lufatit turk”da berilgan bir qator nasriy bayonlarni aytish mumkin bo'ladi. Keyinchalik esa, yozma adabiyotning paydo bo'lishi bilan she'riy hikoyachilik ustuvor ahamiyat kasb etib, to XX asrning boshlariga qadar asosiy usullardan bo'lib qoldi. To'g'ri, ularning orasida qisman bo'lsa-da, nasr yo'li bilan bitilgan hikoyalar ham uchrab turdi. Biroq bu usul etakchilik kasb eta olmadi.

Turkiy yozma adabiyotning ilk namunalari sifatida a'tirof etilgan Tunioquq, Bilga qoon, Kultegin bitiklarini hikoyaning ilk ko'rinishlari sifatida qabul qilish mumkin. Yo'llif tigin tarafidan tosh yoki marmarga o'yib bitilgan mazkurlar hajman u qadar katta emas (70-80 satr), undagi qahramonlarni ham ko'p sonli deb bo'lmaydi, badiiylkdan ko'ra, bayonlash etakchilik qiladi. Bularga qo'shimcha tarzda shuni ilova qilish mumkinki, toshbitiklar davlatchilikning ilk solnomalari bo'lganligi tufayli ularda xronologiyaga a'tiborni qaratish, hukmdor, sarkardalarning jasoratlarini madh qilish birlamchi rejada turgan. Bularda badiiylk unsurlari etakchi bo'lmagan. Ular muallif tomonidan she'riy yo'l bilan yaratilgan. SHu boisdan bo'lsa kerak, zikr etilgan bitiklar turkologiyada “qabriston poeziyasi” deb ham yoritiladi. Ehtimol, ana shu belgilar toshbitiklarni hikoya deb atashga monelik qilib tursa kerak. Ammo Mahmud Qoshfariy “Devonu lufatit-turk”(XI asr) asarida bundayin she'riy yoki nasriy yo'sinda bitilgan bayonnomalarga nisbatan ”hikoya” va “ a'tak” ma'nosida “ a'tuk” hamda “o'tkunch” atamalarini yondosh qo'llashni taklif etgani ham bor haqiqat¹⁰. SHunisi ham muhimki, M.Qoshfariy ularning nazmda yoki nasrda yozilishi haqida hech narsa demagan. Agar biz I.V.Steblevaning qadimgi turkiy adabiyotdagi to'rtlik shakllari haqida gapirib,¹¹ uning turkiy tillar qadimiy adabiyoti uchun keng tarqalgan va qabul qilingan janr ekanligi to'g'risidagi fikrlarni nazarda tutsak, unda a'tukning ham, o'tkunchning ham she'riy hikoyalar bo'lganligini taxmin qila olamiz.¹²

¹⁰ Қошғарий Махмуд. Девону луғатит турк, Уч томлик, 1 том. – Тошкент, 1960, 98, 175-6.

¹¹ Стеблева И.В. Поэзия тюрков VI-VIII веков. – М., «Наука», 1965, 71-98-6.

¹² Бу ҳақида қаранг: Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент, «Фан», 1974, 6-7-6.

Nazmiy hikoyachilik yozma adabiyotda “Qutadru bilig”dan boshlanganligi ma’lum. Rabfo’ziy esa turkiy nasriy hikoyachilikning ta’mal toshini qo’ygan, desak xato bo’lmaydi. Uning qissalariga ilova qilingan hikoyalar mazkur janrning nazariy talablariga bir qadar to’la javob bera oladi: ularda bir yo’nalishdagi sjojet, shakllangan qahramon, dialog va monolog, o’ziga xos poëtika, echimdan namoyon bo’lgan ibrat-xulosa ham mavjud. Rabfo’ziy iste’molga olib kirgan nasriy hikoyachilik Navoiygacha ancha oqsagan. Bu davrda masnaviy-hikoyachilik etakchi bo’lganligini kuzatish mumkin. Chunki masnaviyda yangi o’y va tuyfular ravon kuylanadi. “... masnaviy shakli lirik-epik asarga o’rfay, shakli sodda, hashamsiz. Bu shakl, xususan. epos uchun xosdir”.¹³ Navoiy adabiy janrlar ichida masnaviyni “barchadin xo’bi”, “vase’ maydon” (keng maydon) deb atagan. Zero masnaviy turli-tuman fikr va hayot xodisalaridan kelib chiqadigan mushohadalarni batafsil va keng, tegishli timsollar hamda obrazli ifodalar orqali bayon etishda ijodkor uchun etarli imkoniyatlarni yozaga keltiradi. Masnaviyning ana shunday keng imkoniyatlari tufayli qancha shoir bu maydonga qadam qo’ymasin, hech biri ikkinchisini takrorlamaydi, balki o’z mahorati va qobiliyatini namoyish ettira oladi. Bu bizning fikr emas, uluf Navoiy ana shunday deydi: “*Vus’atida yoz o’lsa ma’rakagir, Ko’rguzur san’atin bori bir-bir*”. YAna Alisher Navoiy masnaviyni boshqa adabiy janrlarga nisbatan “o’zga olamdurur” (*Vale masnaviy o’zga olamdurur, Ki tab’iza xolo musallamdurur*) deb alohida ta’kidlagan. Prof. B.Valixo’jaev o’z vaqtida bularga qo’shimcha qilib, masnaviyda yozilgan kichik qissalarni “*hikoya*” dab atashni taklif qilgan, va bizningcha, bunda juda to’fri hukmni havola etgan.¹⁴ Darhaqiqat, masnaviy alohida janr esa-da, uning shakli hikoya uchun xos va mos keladi. SHarq hikoyachiligida masnaviy hikoya an’ana tusini olgani tufayli Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr” dostonlarida bir qator hikoyalar berilgan. YAnayam to’frisi, masnaviy-doston tarkibida masnaviy-hikoya uchraydi, ya’ni ushbu dostonlarning umumkompozitsiyasida yuqorida tahlil qilib o’tganimizdek, “hikoya

¹³ Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. II жилд. – Тошкент, «Фан», 1992, 199-6.

¹⁴ Бу ҳақида қаранг: Валихўжаев Б. Кўрсатилган асар. 27, 77-6

ichida hikoya” usuli etakchilik qiladi va keltirilgan hikoyalar dostonlar sjojetining badiiy bayoni davomida etakchi mazmunga mos izchillikda, aytilmoqchi bo’lgan fikrni maromiga etkazish, asarning o’qishmishliligini oshirish maqsadida joylashtirilgan. Aslida ham, “xamosiy (xamsa shaklidagi, epik) she’rlar biror-bir millatning afsonaviy davrlari, bir necha avlodning uzoq tarixiy davr davomidagi janglari, qahramonliklari haqida hikoya qiladi. ...xamosiy she’r “u” va “sen”dan so’ylaydi. SHuning uchun xamosiy shoirning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari faqatgina epik asarning hoshiyasida istisno tariqasida yohud “lirik chekinish” orqali bayon etilishi mumkin. epik she’rda shoirning mahorati mavjud rivoyatlarni muayyan bir tartibda, manzum va shoirona bir tarzda bayon etishida namoyon bo’ladi”.¹⁵ “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr” dostonlaridagi hikoyatlar beistisno o’z mazmuni va ichki strukturasiga, obrazlari va echimiga ega bo’lib, ularning har biri kichik tugal asar darajasiga ko’tarilgan; ilova etilgan bob-maqolatlaridan (shartli ravishda) ajratib olinganida ham, ular ma’lum foyaviy estetika va ahloqiy-tarbiyaviy vazifani o’tayveradi. Ammo bu ta’kid hikoyatlarning umuman doston, xususan bob-maqolatlar konteksti bilan mustahkam mantiqiy aloqasini inkor etmaydi. CHindan ham, muallif dostonning duch kelgan joyiga bu “mustaqil”, “tayyor” asarlarini qistirib yoboravergan, deyish xato bo’ladi. Hikoyat muayyan doston kompozitsiyasi bilan birikib, umummazmun bilan bevosita aloqaga kirishadi, uni izohlaydi, to’ldiradi.¹⁶

Kuzatishlar shundan dalolat qiladiki, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlariga kiritgan biror bir hikoyani alohida bir janr sifatida taqdim etmagan. SHayx Sa’diyning “Guliston”, “Bo’ston”, Xojaning “Miftoh ul-adl”, “Gulzor” va boshqa shu kabi bitiklar faqat hikoyalar majmuasidan iboratligi ma’lum. Biroq hazrat Navoiy hikoyalarni aniq bir ijtimoiy va ilmiy fikrlariga illiustratsiya (ilova) qilib keltirgan. Muayyan asarlardagi “... olfa surilayotgan bosh foyani chuqurroq ochish, asosiy maqsadni o’quvchilarga yorqinroq namoyish etish maqsadida ilova, hikoyat va masallarda ham, hikmat va tamsillarda ham shu etakchi motivlarning

¹⁵ Доктор Такий Пурномдариён. Мавлавий шеърятда «мен»даги «мен»лик ва матндаги ноанъанавийлик. – «Сино» журн., 2001, 1-сон, 3-б.

¹⁶ Бу ҳақида қаранг: Абдуғафуров А. Кўрсатилган мақола. 157-б.

mo''jaz badiiy ifodasini ko'ramiz. Bu namunalar, ayni zamonda ulkan shoir iste'dodining yana bir qirrasini ravshan namoyon etadi, ya'ni Navoiyni mohir hikoyanavis sifatida xarakterlaydi''¹⁷. Bu masalaning bir jihati. Yana ulur mutafakkirning shunday asarlari uchraydiki, ularda SHarq adabiyotida an'ana tusini olgan hikoyanavislikning yana boshqacha ko'rinishlari ham uchraydi. Bularning ayrimlari ilmiy fikrlarni biror hayotiy misol bilan dalillash maqsadida keltirilgan bo'lsa, yana boshqalari ayni bir voqea-hodisani tasvirlash maqsadi etiboridan talif etilgan. SHunga ko'ra, SHarq hikoyachiligini keltirilish maqsadi, muallifning tutgan pozitsiyasiga ko'ra uch xil tasnif qilish maqsadga muvofiq ko'rinadi: a)ilmiy-ma'rifiy hikoyalar; b)ma'rifiy-badiiy hikoyalar; v)badiiy-ma'rifiy hikoyalar. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" singari asarlaridagi hikoyalar, xatto "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" kabi nasriy-ilmiy asarlaridan joy olgan hikoyalar adibning turli-tuman dunyoviy masalalar, insonning ma'naviy olami, din, tasavvuf haqidagi qarashlarini dalillash maqsadida ilova qilingan. "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlaridagi hikoyalar esa bunday emas. Ularda, xususan, Bahrom va Dilorom sarguzashtlarini ko'rsatish maqsad qilib olingan asarda ettita bir-biriga bo'flanmagan hikoyalar keltirilgan bo'lsa, Iskandar sarguzashtlari borasidagi asarda ham shu tariqa bir necha hikoyalar taqdim etiladi. "Hikoya ichida hikoya" usulida yaratilgan mazkur hikoyalar bir tomondan, tilga olingan asarlardagi asosiy voqelikni dalillaydigan unsur sifatida ko'rinsa, ikkinchi tomondan, mustaqil asar maqomida namoyon bo'ladi. "Saddi Iskandariy" dostonida "Iskandar va Darvesh" nomli hikoya mavjud. Bu hikoya Navoiygacha ham SHarq hikoyachiligida ma'lum va mashhur bo'lgan. (CHunonchi, o'zbek yozma adabiyotidagi birinchi ma'rifiy-badiiy doston hisoblangan "Qutadfu bilik"da mazkur hikoya asar qahramonlaridan biri O'zurmish tilidan bayon qilinadi). Unda hikoya qilinishicha, kunlardan bir kuni jahongir Iskandar o'zi fath qilgan yurtga shu urning hurmatli zotlaridan birini podshoh qilib ko'tarmoq niyatida bunga munosib bo'lgan shaxsni axtartiradi. SHunda yurtning dono kishilari Iskandarga asli o'zi podshozoda bo'lgan bir

¹⁷ Абдуғафуров А. Шеърӣ ҳикоят ва масалаларда ҳам... - «Шарқ юлд.» журн. 1983. 4-сон, 157-б.

darvesh borligi, u shahar qabristonidan panoh topgani, ana shu shahzoda rort podsholigiga munosib ekanligini bildiradilar. Iskandar uni olib kelish uchun odam roboradi, biroq Darvesh Iskandar huzuriga kelishdan bosh tortadi. Jahongir unga yana ikki bor chopar yo'llaydi. Darvesh bunda ham kelmaydi. SHundan so'ng Iskandarning o'zi Darvesh huzuriga borishga qaror qiladi. Jahongirning taklifini eshitgan Darvesh podshoh bo'lishdan bosh tortadi. Iskandarning taklifi o'ta qat'iy ekanligini bilgach, Darvesh jahongirga to'rtta shart qo'yadi: so'ngsiz tiriklik, tuganmas boylik, kasallik bilmas so'flik, qariligi bo'lmagan yoshlik. Tabiiyki, bunday shartni ado etish Iskandarning qo'lidan kelmas edi. Hikoya shu bilan yakun topadi.

IOqorida tahlil etilgan hikoyani Alisher Navoiydan keyin Hoja o'zining "Gulzor" asarida keltiradi. Muallif mazkurni asarning ayni shu hikoyada deyilmoqchi bo'lgan foyaga muvofiq tarzda ilova qiladi. Demak, mumtoz adabiyotda har bir hikoya ma'lum maqsad bilan yaratilgan va muayyan asarga kiritilgan. Bu romantik hikoyachilikning asosiy jihati bo'lib ko'zga tashlanadi.

1.2. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining ruzaga kelishi va rivojlanish omillari

Alisher Navoiygacha bo'lgan hikoyachilik o'zining shakllanish bosqichini o'tagan bo'lsa, uning davriga kelib bu janr to'la mukammallik kasb etdi. SHoir dostonlarida, "Mahbub ul-qulub" pandnomasida, "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Nasoyimul-muhabbat" kabi asarlarida prof.N.M.Mallaeving ma'lumotlariga qaraganda, ikki ruzdan ziyod hikoyat mavjud. Bu hikoyatlarning qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomlari bilan bo'fliq. Qadimgi shahar, IOnon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotam Toy, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bastomiy, Anushirvon va boshqalar – Navoiy hikoyatlarining qahramonlaridir.

Turli asarlar tarkibida berilgan hikoyatlarni ikkiga – an’anaviy hikoyat va yangi hikoyatlarga ajratish mumkin. An’anaviy hikoyatlar azaldan mavjud bo’lib, qayta ishlangan hikoyatlardir. Yangilari esa ko’proq Navoiyning zamondoshlari haqida ma’lum bir voqea va hodisalar munosabati bilan vujudga kelgan naql va latifalardir. (Bunday naql va latifalar “Majolisun-nafois”, “Xamsatul-mutahayyirin”, “Holoti Sayidhasan Ardasher” kabi adabiy biografik asarlar tarkibidan o’rin olgan.)

An’anaviy hikoyatlar yozma manbalar va o’rzaki tarzda Navoiyga qadar etib kelgan hikoyatlardir. Manbalarni “yozma” va “o’rzaki” deb bo’lish xiyla shartlidir. Chunki yozma manbalardan joy olgan hikoyatlarning ko’pi sof kitobiy hikoyatlar bo’lmay, balki folklorda shakllangan yoki folklor asarlaridan foydalanib yaratilgan hikoyatlardir.

Hikoyat – yozma adabiyot bilan o’rzaki adabiyotni bir-biriga bo’lagan bir ko’prik deyilsa, xato bo’lmaydi. Xalq hikoyatlari bilan kitobiy hikoyatlar o’zaro shunday yaqinki, ularni qat’iy chegaralash ko’pincha amri mahol. Chunki hikoyat xalq rivoyatidan kitobga, kitobdan xalq hikoyachiligiga o’tib borgan. Shu bilan birga, ma’lum bir xalqning adabiyoti zaminida vujudga kelgan hikoya ikkinchi bir xalq tomonidan qayta ishlanib uning adabiy bisotiga qo’shilib ketadi.

“Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna” (Panchatantra), “Javome’ul-hikoyat va lavomeul-rivoyat” kabi asarlar Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida juda keng shuhrat topgan.

Prof. N.M.Mallaevning ta’kidlashicha, buxorolik Muhammad Avfiyning rozga yaqin manbalardan ijodiy foydalanish asosida yaratilgan “Javomeul hikoyat” asari keyingi mualliflar uchun hikoyat va rivoyatlarning beqiyos boy manbai sifatida xizmat qilgan. Asar ikki mingdan ziyod hikoyatni qamrab olgan¹.

Sharq xalqlarining axloqiy-ta’limiy xarakterdagi asarlarini, tarix kitoblari va epik asarlarni hikoyatlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ularning deyarli hammasida ibratomuz hikoyat, tamsil va masallar, latifa va afsonalar bor.

¹ Н.М.Маллаев. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т., 1974, 190-бет.

CHunonchi, Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”sining, SHayx Sa’diy “Guliston”i, Abdurahmon Jomiy “Bahoriston”ining keng shuhrati va manguigi birinchi navbatda bu asarlardagi ibratomuz hikoyatlar bilan borliqdir.

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyalarning katta qismi Alisher Navoiygacha ham orzaki va yozma adabiyotda bo’lgan. CHunonchi, ikkinchi maqolat Islom bobida bo’lib, bunga “Ibrohim Adhamning Ka’bafa namoz bila borfoni va Robiyai Adaviyafa Ka’baning niyoz bila kelfani”, deb sarlavhalangan hikoya ilova qilingan. Mazkur hikoya Farididdin Attorning mashhur “Tazkirat ul-avliyo”sida ham uchraydi. Farididdin Attor hikoya qilishicha, Ibrohim Adham rahmatullohi alayh Balh hukmdorligidan voz kechib, Alloh yo’liga o’tgach, har qadamiga ikki rakatdan namoz ado qilib, o’n to’rt yilda zo’rfa Ka’bai sharifga etib borishga muyassar bo’ladi: “...Yo’lda borar ekan, har qadamda ikki rak’at nomoz o’qirardi. CHun Ka’baga etdi, qarasaki, Ka’ba o’rnida yo’q. Bir oh urdi.

- Ajabo! Bu ne holdur! Ko’zimda nuqson bormidir? - dedi. Hotifdan bir ovoz eshitdi:

- YO Ibrohim! Sening ko’zing o’rnidadir. Ammo, Bizning bir joriyamiz bordir, ul Bizga yozlandi. Biz Ka’bamizni unga muqobil jo’natdik! - deyiladi. Ibrohim Adham hayratlandi va:

- Bu nechuk ayol bo’ldiki, martabasi va nozi Parvardigor dargohida bunchalik bo’lfay! - dedi. Orqaga yordi. Ko’rdiki, Robiya kelayotir. Ibrohim Adham Robiyani ko’rgach:

- YO Robiya! Bu ne holdirki, jahonni hayratga solding! O’n to’rt yilda necha turli mashaqqatlar bilan, har qadamda ikki rak’at namoz o’qib, Ka’bani ishqida keldim. Ka’ba senga muqobil kelibdur.

Robiya:

- YO Ibrohim! Sen namoz qilding, men niyoz qildim! – dedi”. Robiya hajni ado qildi. Uyiga – Basra shahriga qaytib, ibodat bilan mashful bo’ldi...”¹⁸

¹⁸ Фариддиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё.- Тошкент. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” нашр. – 1997. – 147-бет.

Ko'rinadiki, hikoya u qadar katta emas. Unda asosan echim a'tiborda tutilgan. Xalq kitobi atalmish "Ibrohim Adham qissasi"da ham ushbu lavha mavjud. Yana boshqa tazkiralalar, kitoblar, Robiya haqidagi bitiklarda ham ayni shu voqea hamda diologlar keltiriladi. Alisher Navoiyda ham Ibrohim Adham va Robiyaga oid hikoyat juda qisqa - 20 bayt. SHunisi borki, Navoiy keltirgan hikoya Farididdin Attor tazkirasidagi hikoyaning nazmiy ko'rinishi xolos. Faqat unda epilog va hikoyadan kelib chiqadigan xulosa-echim to'kisroq ifoda etilgan. CHunonchi, hikoyaning ekspozitsiyasi "Hayrat ul-abror"da tubandagicha beriladi:

Bo'ldi musalloni solib sajdaso,
Har qadam aylab iki rak'at namoz.
Qoldi bu yo'l qat'ida o'n to'rt yil,
Madhi'ra har horu giyah chekti til.
Makka tavofira chu qildi xirom,
Yo'q edi o'z o'rnida bayt ul-harom.¹⁹

Farididdin Attorda Ibrohim Adham va Robiya diologi bir o'rinda beriladi. Alisher Navoiyda esa Robiyaga ikki o'rinda so'z tegadi. Dastlabki holatda Ibrohim Adhamning "Men o'n to'rt yil har qadamga ikki rak'at namoz o'qib keldim", degan minnatiga (mannonlik faqat Allohga xosligiga ishorat bor bu o'rinda) Robiya bir oz istehzo bilan qo'polroq javob qiladi:

Robiya dedi angakim: "Qilma zo'r,
SHo'r seningdur bori olamda bil,
Badiya qat'i uchun o'n to'rt yil".²⁰

Farididdin Attorda tasavvufiy mohiyat etarli ochilmay qolgandek taassurot paydo bo'ladi, asosiy urfu shariatga berilganday. Alisher Navoiy shu mohiyatni benihoya ustalik va noziklik bilan to'ldiradi. Insoni komillik yo'li faqat shariatdangina iborat emasligi "niyozu fano" maqsadning asosi bo'lgandagina, Haqqa etishish mumkinligiga ishora etiladi. Bu esa Navoiy tomonidan Robiyaga

¹⁹ Алишер Навоий. Кўрсатилган жилд. 118-б.

²⁰ Ўша жойда. 120-б.

berilgan ikkinchi soʻz - Ibrohim Adhamning koʻzini ochish uchun berilgan imkoniyat sanaladi:

Dedi Birohimki: “Oy pokrav,
Balki malak xaylidek aflok rav.
Nedin əkin buki manga etti ranj,
Men chekibon ranju sanga boʻldi ganj”.
Robiya dedi anga: “Ogoh boʻl,
Kim necha yil badiyada borchha yoʻl.
Boʻldi ishing arzi namoz aylamak,
SHeva manga arzi niyoz aylamak.
Senga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano”.²¹

SHarqda saxovat, karampeshalik va ochiq koʻngillilikning timsoliga aylangan Hotami Toyi haqida koʻplab hikoyalar yaratilgan. Nizomiyning “Maxzan ul-asror”idagi Hotam Toyi haqidagi hikoyatni Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror”iga erkin tarjima qilgan holatda kiritgan. Ayni choʻrda, Haydar Xorazmiy hikoyatga Nizomiya qaraganda boshqacharoq yondashadi, saxiylikni, karamni maqtaydi, xasislik va baxillikni qoralaydi; baxillikdan ozod boʻlgan kambafalni (muflisni) baxil davlatmanddan ustun qoʻyadi. Saʼdiy “Guliston”idagi Hotam Toyi va oʻtinchi chol haqidagi nasriy hikoyatni Sayfi Saroyi “Gulistoni bit-turkiy”ga toʻkis tarjima qilib kiritgan. Alisher Navoiy ushbu hikoyani “Hayrat ul-abror”ning beshinchi maqolati “Karam bob”ga ilova qiladi. Alisher Navoiy keltirgan bu hikoya ham katta əmas. Asosiy voqelik 19 baytda ochiladi. Keyingi uch bayt lirik chekinish – “qissadan hissa” mazmunida.

Hikoyatda keltirilishicha, Hotamning yaqinlaridan birining “Bu yorur olamda sendan ham karampesha topiladimi?” degan savoliga oʻzi va bir burda nonni halol mehnati va peshona teri bilan topib eyishni afzal bilgan oʻtinchi chol oʻrtasidagi muloqotni misol qilib keltiradi va oʻtinchi chol mendan-da sahovatli, degan xulosani aytadi:

²¹ Ўша жойда. 120-б.

Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
YAxshiroq andinki birov bersa ganj.²²

“Qutadfu bilig”, “Saddi Iskandariy”, “Gulzor” kabi asarlarda keltirilgan “Iskandar va Darvesh” hikoyasiga o’xshash lavha keyinchalik XVIII asrda yaratilgan xalq kitobi “Qissasi Mashrab”da ham uchraganligi mazkur hikoyatning o’z tipologiyasiga ko’ra, turli xil ko’rinishlarda xalq orasida yashab kelganligini ko’rsatadi. Hikoyada dunyoviy tafakkurning aniq bir manzarasi ahloqiy mezonlar doirasiga singdirib ijoboriladi. Natijada, birgina hikoyada ilgari surilgan foya butun bir dostonning umumfoyasi bilan tutashib ketadi. SHu hikoyat orqali Alisher Navoiy jahongir Iskandar xarakterining ayrim qirralarini yanada yorqinroq ochib berishga, dunyoni sir-sinoatlaridan kishilarni ogoh etishga muvaffaq bo’ladi. Bundayin holatlar Alisher Navoiy epik she’riyatining turli o’rinlarida uchraydi. CHunonchi “Sab’ai sayyor”da Bahromning xakteri, dunyoqarashi, kayfiyati va bular bilan bo’liq hodisalar etti musofirning muruvvat, futuvvat, rostgo’ylik, birodarlik, vafo-sadoqat haqidagi hikoyalari fonida ochib beriladi. YOKi “Lison ut-tayr”da Hudhud aytgan hikoyatlar ham dunyoviy tafakkurning turfa ko’rinishlari haqidaligi bilan etiborga molikdir.

Bular Alisher Navoiy va ungacha bo’lgan turkiy va ayrim forsiy hikoyachilik haqidagi ayrim mulohazalar xolos. Zero hikoyachilikdagi bu usul va uslublar to XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar deyarli o’zgarishlarsiz keldi. Fikrimizning dalili sifatida Hoja hamda So’fi Olloyor hikoyatlaridan bittadanini tahlilga tortib ko’raylik.

“Miftoh ul-adl”ning ikkinchi bobi odil sultonlarning turli amallari haqida bo’lib, undagi bir hikoyada tubandagilar bayon qilinadi: “Kunlardan bir kuni bir podshoh bor erdi. Bisyor odil erdi. Bir kun bir vazirina aydi: haj tavof qilmoqra borurman, san borurmusen? Vazir aydi: ey podshohim, taxtni bo’sh qo’rub Ka’bafa borsangiz el-xaloyiq boshtoq bo’lmasmu, tedi. Podshoh aydi: boshtoq bo’lmas, yo’q ersa, manga haj qilfon hojining savobini sotfun olib bering, qiyomatda hojilar birlan birga turgayman. Vazir “pod-shoh uchun haj sotfun

²² Ўша жойда. 153-б.

olmoq kerak” deb istab iorur ʻerdi, bir kimarsaga yoʻliqdi. Ul kishi aydi: falon erda bir zohid bor turur. Yigirma qatla Kaʼbafa yoyof borib turur va taqi haj qilib turur va hech kishining oshin emas, anga boring. Ul bir haj sotsa, podshoh uchun oling. Borib ul zohidni podshoh uchun olib keldilar. Podshoh aydi: ʻey zohid, bir yoʻli qilfon hajingning savobini bizga soturmusan? Zohid aydi: necha olursiz? Sulton aydi: ming qizil tanga berayin. Zohid aydi: ming qizil tanga oz turur. Sulton aydi: ʻey zohid, oz boʻlsa, oʻn ming qizil tanga berayin. Zohid aydi: oz turur. Sulton aydi: oʻzung na tilasang, tilagin. Zohid aydi: ʻey podshohim, bir haj nima boʻlay, yigirma hajimning savobini sanga berayin, san bir soat adl qilfoningning savobini manga bersang. Sulton aydi: ʻey zohid, bir soat adl qilfonning savobi na boʻlur? Zohid aydi: bir soat adl qilfonning savobi odamlar, farishtalar va hurlarning ibodatidan ortiq turur”.²³

“Sabot ul -ojizin”da mana bu sheʼriy hikoya Tojiddin YOʻlchiquʻl sharhida quyidagicha beriladi:

Musulmonefa bir kun aydi Hajjoj:

“Duoyi xayr uchun bizfa qoʻling och”.

Kunlardan bir kun Hajjoj ibni IOsuf bir mustajobi daʼvot kimsaga uzrxohlik va iltimos bilan dedi: “ʻEy, aziz arjumand, bizlarga bir yaxshi duo qilfil”. (Naqldirki, ul kishi bardodli Sulaymon ibni Muso ismli kishi ʻedi. Foyat taqvoli donishmand ʻedi. Hajjoj esa Makka podshohi ʻedi. Oʻta zolim ʻedi va ”Dunyoda qon toʻkishdan lazzatli narsa yoʻq” - derdi).

Koʻtardi qoʻl duofa ul niku hol,

Dedi: “YO rab, bu zolim jonini ol”.

Ul aziz Hajjojning iltimosini qabul qilib, duoga qoʻl koʻtarib dedi: “ʻEy, Xudo, bu zolim shumning jonini olgil va umrini oz qilgil”.

Dedi Hajjoj oʻshal mardi Xudofa,

“Tiling bordi nechuk mundoʻf duofa?”

²³ Пошшоҳўжа “Мифтоҳ ул-адл” ва “Тулзор”дан. Тошкент. ЎзССР Давлат бадииний адабиёт нашриёти. – 1962. – 13-14-бетлар.

Hajjoj bu duoni эshitgach, ul Alloh Taolo yo'lida ioruvchi azizga dedi:
“Bundayin duoga nechuk tiling aylandi? Mendan nima jafo ko'rdingki, bundayin xavfli duo qilding?!”

Dedi Hajjojra ul mardi niku sayr:

“Sangavu barcha mo'minlargadur xayr”.

O'sha yaxshi iorish-turishli avliyo Hajjojga javob berib aytdiki, bu duo ajab ko'rkam duodir. U sizga va barcha mo'minlar uchun yaxshidir.

Gunohing kam bo'lur, o'lsang agar tez,

Ketar zulming alarning boshidin niz.

Ul aziz kimsa dediki, agar sen mening duom tufayli tez kunda o'lib, oxirat uyiga borsang, gunohing oz bo'lardi. Zeroki umring uzun bo'lsa, gunohing ko'p bo'lib tamufda uzoq turarsan. Tez o'lmo'ringdan yana bir foyda shulki, mo'minlar boshidan zulming ketib, rohatda qolurlar. Senga bundan ortiq yaxshi duo bo'lurmu?! (Aytmishlarki, ul aziz bu duoni qilgandan so'ng yigirma kuncha o'tgach, Hajjoj hijratning 126-yilida rab'iul avval oyining 13-kunida juma kechasi dorulbaqoga ketdi. Masjidi Haramning Bobi Abbos эshigi yonida dafn qilindi)²⁴.

Keltirilgan har ikki hikoya shaklidagi farqlardan qat'i nazar, mazmun tomonidan bir-biriga aloqador. Bularda din, tasavvuf hamda dunyoviylikka aloqador masalalar bevosita shariat nuqtai nazaridan hal etilmoqda. SHunisi э'tiborliki, har ikki hikoyada ham bayon va tasvirda ortiqchalik mutlaqo sezilmaydi. Voqealar ixcham shaklda berilgan. Ulardagi qahramonlar ham xarakter darajasida shakllangan holatda hikoyalarga olib kirilgan. Bu o'rinda ularning dunyoqarashi va nutqi muhim. Va hikoyalarning asosiy foyasi qahramonlarning diologlaridan oydinlashadi. Har ikki hikoyada ham adolatli podsho foyasi etakchilik qiladi. Har ikkalasida ham masalaning echimi avliyolarning hukmiga borib taqaladi va bu hukmlar islom shiati tomonidan echiladi , o'quvchilarga xavola qilinadi.

²⁴ “Рисолаи Азиза” – “Сабот ул-ојизин”нинг шарҳи. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 2000. – 115-116-бетлар. Келтирилган бу ҳикоя Шайх Саъдийнинг Сайфи Саройи ҳамда Оғаҳийлар амалга оширган ҳар икки таржимасида ҳам мавжуд.- С.Б.

Mazkurlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mumtoz o'zbek hikoyachiligi ilk ko'rinishidanoq, ko'proq islomiy ʻoyalar, inson ma'naviyatini roksaltirishga qaratilgan maqsadlar o'laroq maydonga kelganiga ishonch hosil qilish mumkin. CHunki ʻoqorida keltirilgan hamma hikoyalar bevosita islom shariati talabi tufayli paydo bo'lgan hamda hikoyalar ruhiga singdirilgan barcha fikrlar ana shu qarashlar natijasi orqali o'quvchigi etkaziladi. Bular orqali insonning ruhiyatidagi ayrim bo'shliqlar to'ldiriladi. Biroq XX asr arafasida paydo bo'lgan hikoyalarda bu janrning vazifasi anchayin o'zgargani kuzatiladi. Bu ko'proq hajviy hikoyachilikning ʻozaga kelishi bilan bo'liqqa o'xshaydi. Fikrimizning dalili sifatida Muqimiy qalamiga mansub bo'lgan "Tanobchilar" satirik hikoyasini ko'rib o'taylik.

Bizdan oldingi va bizning avlod, bugungi adabiyot ahllari "hikoya" deyilganida qora so'z – sochma nutqqa asoslangan kichik hajmli, muxtasar sʻojetli, timsollari nisbatan kam bo'lgan, tap-tayyor voqelik va bundan kelib chiqadigan echimi aniq sezilib turadigan asarni tushunishga odatlanganlar. Holbuki, hikoya janrining ʻvolʻuyiyasi bu tushunchalarning qat'iy ʻmasligi, mazkur janr doimiy o'sish-o'zgarishda ʻkanligini ko'rsatadi. Agar SHarq adabiyotidagi tadrijga nazar tashlansa, hikoya janri uzoq yillar davomida o'zgarishsiz yashab kelib, keyingi asrlarda uning hamma unsurlarida kengayish jarayoni kuzatilgani holda, XX asrga o'tib, uning shakl va mundarijasida tamoman yangilanish holatlari ko'zga tashlanadi.

Muqimiy qalamiga mansub "Tanobchilar", "Maskovchi boy ta'rifida", "To'y", "Voqiai Viktor", "Voqiai ko'r Ashurboy hoji" singari asarlar o'tmish hikoyachiligini yangi sharoitlarda rivojlantirgan, an'anaviy romantik usullarda bitilgan hikoyalardan tubdan farq qiluvchi, shoir yashagan real hayot voqeligini tasvir markaziga olgan asarlar sifatida ʻtiborlidir. Mazkur masnaviylar haqidagi tadqiqot va ma'lumotlarda bularni hajviya deb atash bilan kifoyalanilgan va hozirga qadar ular shunday atab kelinyapti. Bizningcha, ʻoqorida keltirilgan dalillar asosida Muqimiyning voqeaband masnaviylarini ham hajviy hikoyalar deb nomlash to'ʻri bo'ladi. Fikrimizning dalili o'laroq mazkur masnaviylarning

matla'lariga э'tibor qarataylik. "Tanobchilar" hajviy hikoyasi tubandagi bayt bilan boshlanadi:

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin əmdi yozib nomalar.²⁵

Masnaviy matla'sida ishlatilayotgan "hangoma" so'zi bu o'rinda hikoya ma'nosida ishlatilayotgan bo'lsa, "Maskovchi boy ta'rifida", "Voqiai Viktor" kabilarda ayni "hikoya" so'zi istifoda qilinadi.

"Maskovchi boy ta'rifida" masnaviysining matla'si:

Hikoyat qilay turfa davron əkan,²⁶
Xaloyiq hama mahvu hayron əkan.

"Voqiai Viktor" ning matla'si:

Əshit, turfa so'zlar hikoyat qilay,
Hikoyat agarchi, shikoyat qilay.²⁷

Muqimiy "Tanobchilar" hajviy hikoyasining sjojetini real voqea-hodisalar asosiga qurgan. Undagi voqealarni muallif o'z boshidan kechirgan, hech bo'lmaganda, boshqalardan əshitgan. Mazkur satirik hikoya amaldorlar zulmiga yo'liqqan dehqon arz-dodi bilan boshlanadi:

O'n iki yilda keladur bir tanob,
O'zgalara rohatu manga azob.²⁸

Muqimiy tasvirga olgan voqelik oldingi hikoyalardan tubdan farq qiladi. Bu holat qaysi jihatlarida ko'zga tashlanadi? Avvalo, mumtoz hikoyachilikda ko'proq muallifning o'zi roviylik qilgan bo'lsa, Muqimiy hikoyalarida roviyning o'rnini qahramon egallaydi: "*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar, Arz etayin əmdi yozib nomalar*". Hikoya markazida turgan voqelikni qahramon tilidan hikoya qilib berish keyinchalik nasrda asosiy usullardan biriga aylanib qoldi. Ikkinchi holat shuki, bu satirik hikoyaning ikki asosiy qahramoni bo'lgan Suton Ali hamda

²⁵ Муқимий. Асарлар. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1974. – 343-бет.

²⁶ Шу тўплам. 348-бет.

²⁷ Шу тўплам. 362-бет.

²⁸ Шу тўплам. 343-бет.

Hakimjonning xarakter belgilari ham ularning o'z nutqlari orqali ochib beriladi. Raviy (jabrdiyda dehqon) qishloqdagi erlarni o'lchash uchun kelgan tanobchilarning dehqonlarning tanobini bir necha bor oshirib ko'rsatib, ularning xonavayron bo'lishlariga sabab bo'lganliklari barobarida, o'zlarini juda katta tutib, dehqonlar oldida maqtanishlarini o'ta ishonarli tarzda hikoya qiladi. Aslida, "Tanobchilar" satirik hikoyasidan kutilgan asosiy maqsad ham tilga olingan ikki qahramonning jirkanch basharalarini aniq dalillar – bularning dehqonlarga qilgan zulmlari orqali ochib berish bo'lgan. SHu sababdan bo'lsa kerakki, hikoya avvalida ikki tanobchining o'ta maqtanchiq, kibru havosi juda baland, ayni cho'fda, bir-birlari bilan ittifoq bo'lishib, qishloqlik dehqonlarni talashlari foyat ishonarli tarzda beriladi:

Sulton Ali Xo'ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo'ldi kuyav.
Osh esalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja – chiroq yori, Hakimjon – pilik.²⁹

Mana, Sulton Ali Xo'ja qanday qilib oriz ko'pirtiradi:

Derki: "Ko'zungga hali kal jo'jaman,
Mahdumi a'zamlik o'zim xo'jaman.
Bizga bobo hazrati SHohliif mazor,
Muhlisimiz mardumi ahli diyor.
Ham yana Erhubbi bo'ladur tofo,
Ammamizning erlaridur Nurato.
Bibi Ubayda bo'ladur xolamiz,
Goh kelur erdi kichik bolamiz.
Xizr otamlarga birodar erur,
CHimliif azizlar menga dodar erur.
Manki tanobingfa chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.
O't qo'rubon kuyduradurfon o'zim,

²⁹ Шу тўплам. 343-бет.

Sulton Ali Xo'ja so'zini tugatganidan keyin maqtanish navbati Hakimjonga keladi. Hakimjonning darʼdʼafalari Sulton Ali Xo'janikidan ham oshib tushadi:

“...Arqonimi eringra sudrab chiqay,
Bachchataloq qishloqilarni (uray)...
Xoh o'ling, xoh qoling, bachcharar”,
Deya uzanguga ayofin tirar.³¹

Keyingi o'rinlarda muallif dehqonlarning bu tamagir tanobchilar darʼfazabligini romshatish uchun qilgan xatti-harakatlari – ularga pora berishib, sal bo'lsa-da insofga keltirganliklari tasvirlanadi. So'nggi baytlarda yana dehqonga so'z berilib, uning tanobchilardan ko'rgan jabru sitamlari muxtasar bayon etiladi:

Zulm bila elligu rozni olur,
Boz tanobini duchandon solur.³²

Muqimiyning zikr etilgan hikoyasida realistik hikoyachilikka xos bo'lgan qator unsurlarni uchratish mumkin. Mumtoz hikoyachilikning asosiy maqsadi o'quvchi yoki tinglovchilarga ibrat, pand-nasihad berishdan iborat bo'lgan esa, mazmunan yangirgan hikoyachilikda pand nasihatdan ko'ra, muayyan voqelikni ta'sirchan tasvirlar mafziga singdirish usuli ustuvor bo'lib borganini ayni biz tahlilga tortgan hikoya ko'rsatib turibdi. Boshqa bir hajviy hikoyasi – “Voqiai ko'r Ashurboy hoji” da tasvir usuli ham, tasvir ob'ekti ham o'zgacha – roqorida zikr etilgan hikoyalar masnaviy usulida yozilgan bo'lsa, bu hikoya fazal yo'lida bitilgan. Bunda roviy muallifning o'zi. Hikoyada satira va romor uyfunlashib, davrning tipik kimsalari umumlashmasi bo'lgan ko'r Ashurboy hojining jirkanch basharasi fosh etiladi. Hikoya matlasida ta'kidlanganidek, asarda qiziq xalqning qiziq hodisasi qalamga olingan. Unda bayon etilishicha, tunning yarmida bir qorovulning uyidan dod-faryod ko'tariladi. Bu hangomadan uyfonib ketgan

³⁰ Шу тўплам. 344-бет.

³¹ Шу тўплам. 343-344-бетлар.

³² Шу тўплам. 345-бет.

mahallaning katta-kichigi qorovulning uyiga chopib keladilar. Amaldorlar qorovulning uyiga kirsalarki, mast holda dir-dir titrab ko'r Ashurboy hoji turibdi. Tezlik bilan uni qochirib yuborish rejasini tutadilar. Tomgak bir buzuq narvon qo'yadilar va hojini unga zo'rlab chiqaradilar, ammo bir-ikki po'rona chiqqan hoji gursillab yiqiladi. Endi unga pishang berishib, ketidan itarishib zo'r-bazo'r tomga chiqaradilar. Tomda ketayotgan ko'r turtinib, boshi bilan axlatxonaga yiqiladi. Tahoratga chiqqan uy egasi undan kimligini so'rganida, ko'r Ashurboy ekanini aytadi. Ularning baqir-chaqirini eshitgan xaloyiq, ko'rni tutib chiqadilar. Xalq esa uni o'ris to'ralarga topshiradilar. So'roq paytida o'ris to'ra(pristup):

Dedi: nega bosting birovning qizin

Bobo hoji bo'lsang, kupes – moldor.

- Urishib edi er xotin bular,

Yarashtirfoli qilgan erdim go'zor.³³

Qisqasi, yana amaldorlar chorasini topadilar. O'ris to'ra uni shariat qozisiga yo'llaydi, qozi esa, pora avaziga Ashurboy hojini begunoh deb topadi.³⁴ Xullas, mazkur va yuqorida tahlilga tortilgan hikoyalar shoir Muqimiy o'tmish hikoyachiligining eng yaxshi usullarini ijodiy o'zlashtirgan holda, ularni yangi sharoitlarda mazmun va shakl tomondan jiddiy isloh qilganligini ko'rsatadi. Negaki, u hikoyalari mazmunida real turmush bilan borliq bo'lgan hangnomasifat hodisotlarni-da berish zarurligini isbot qildi va hikoyalar shaklida masnaviy usulidan tashqari, fazal yo'llaridan ham foydalanish mumkinligini amalda ko'rsatib bera oldi.

II bob. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining tadriji va takomilida folklorning o'rni

³³ Шу тўплам. 363-бет.

³⁴ Шу тўплам. 364-бет

2.1. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining shakllanish va takomilida folklor ta'siri

YOzma adabiyotning folklor bilan aloqasi, undan oziqlanib takomil topib borishi haqida adabiyotshunoslikka oid manbalarda ma'lumotlar ko'p. Darhaqiqat insoniyat tarixida adabiyotning ilk ko'rinishi sifatida e'tirof etilgan va deyarli xamma mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan folklor manbalaridan foydalanilmaydigan epik janrning o'zi mavjud emas. Adabiyotimizning idk davrlariga nazar tashlansa, "Qutadfu bilik"da ham, Xoja Ahmad YAssaviy hikmatlarida ham, "Hibat ul-haqoyiq"da ham folklor elementlari aniq sezilib turadi. Oltin o'rda adabiy muhitida paydo bo'lgan bir qator yodnomalar – "Qissasi Rabfo'ziy", "Nahjul farodis", "Kitobi jumjuma" kabi nasriy-diniy asarlar esa folklordan oziqlanish darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiygacha yaratilgan Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", SHayx Sa'diy kitobining tarjimasi bo'lgan "Gulistoni biturkiy" singari asarlarda, temuriylar davriga mansub bo'lgan "Gulshani asror", "IOSuf va Zulayho" va yana ko'pgina dostonlarda folklor ta'siri juda yuqori bo'lgan. Bu o'z galida mumtoz hikoyachilik taraqqiysi va takomiliga kuchli turtki bergan.

"Qissasi Rabfuziy" o'zbek adabiyoti tarixida dastlabki nasriy asar namunasi sifatida ham, yuksak axloqiy-ta'limiy royallarni tarfif qiluvchi badiiy yodgorlik sifatida ham muhim qimmatga ega. Asar sodda va ravon xalq tiliga yaqin ohang va uslubda yaratilgan.

«Qissasi Rabfuziy» o'ziga xos betakror badiiy xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Asarda turli mazmundagi qissalar, ma'rifiy didaktik ahamiyatga ega bo'lgan hikoyatlar, latifalar yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan bo'lib, hikoyatlarning tarixiy ildizi bir tomondan Tavrotga, Qur'onga va SHarq adabiyotida keng tarqalgan naql va rivoyatlarga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, turkiy xalqlar ijodi bilan bo'rtliq afsona va rivoyatlarga bo'rtlanadi.

Muallif o'z asarida xalq ijodidagi adabiy timsollardan, nasriy janrlardan, ilfor royallardan, insonparvarlik ruhidan mahorat bilan foydalangan.

«Qissasi Rabʼfuziy» asosan, payʼambarlar hayoti bilan bogʻliq voqea - hodisalarni badiiy lavhalar vositasida ifodalagan rang-barang qissalardan tashkil topgan. Ushbu qissalarning zahiriga xalq oʻrta ijodida mavjud boʻlgan koʻplab hikoyat va rivoyatlarning mazmuni singdirilgan.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida voqeyiy hodisa yoki afsonaviy voqealar bayon qilingan epik asarlar hikoya deb yoritilgan. Uning qissa, rivoyat shaklidagi koʻrinishlari ham mavjud boʻlgan.

Oʻzbek adabiyoti tarixida payʼambarlar sulolasiga barishlangan qator asarlar mavjudki, ularning har qaysisi oʻziga xos, shu bilan birga umumiy bir mavzuga barishlanganligi bilan mushtaraklikka ega. Bu asarlarning har biri islom tarixini tarrif qilish bilan bir qatorda uluf zotlar obrazlari orqali roksak insoniy fazilatlarni tarannum etish uchun ham xizmat qilib kelgan. SHular jumlasiga Rabʼfuziyning «Qissasul-anbiyo», Soʻfi Olloyorning «Sabot ul-ojiziyn», Mashrabning «Mabdaʼ un-nur», Huvaydoning «Rohati dil» va Sobir Sayqaliyning «Qissai Sayqaliy» asarlarini kiritish mumkin. Va aytish mumkinki, bularning hammasi mumtoz hikoyachilikning ildizi sifatida bahoga arziydi.

Har qanday hikoya, qissa oʻz mazmun mohiyatiga koʻra maʼlum bir maqsadga yoʻnaltirilgan, maʼlum bir maʼnaviy-ijtimoiy royalarni ilgari surishga qaratilgan, oʻz badiiy qonuniyatlariga ega epik asar sanaladi. Bunday asarlarda qissadan hissa chiqariladi va fikrlar sheʼriy parcha yoki baytlar orqali yanada ishonarli qilib tasdiqlanadi. Mazkur sheʼriy parchalar odatda hikmatlar bilan yoʻrtilgan boʻladi.

Nosiriddin Rabʼfoʻziy oʻz asarini “Qisas...” deb atagani bilan undagi qator qissalarning aksariyati kattaroq hajmdagi hikoyani eslatadi. SHuning uchun biz ishimizda asardagi qissalarni ham hikoya maqomida baholab, ularni hikoyalarni tahlil etganimizdek koʻrib chiqishga intildik.

Oʻrta adabiyot ilk shakllangan davrlardan boshlab xalq qissachiligi rozaga kelgan. YOzma adabiyot vujudga kelishi bilan qissalarning yozma koʻrinishlari ham yaratila boshlandi. Bunday qissalarga esa xalq orasida keng tarqalgan afsona, rivoyat va hikoyatlar muhim omil boʻlib xizmat qilgan.

O'zbek mumtoz qissachiligida xalq o'rzaki ijodining bevosita ta'siri sezilib turadi. Buni qissalarning tili va uslubida, badiiy ifodasida kuzatishimiz mumkin.

«Qissasi Rabʼfuziy» asaridan o'rin olgan qissalar badiiyatida ham xalq o'rzaki ijodi motivlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Rabʼfuziy asar bayonida xalq ijodiga xos bir qancha badiiy xususiyatlardan mohirlik bilan foydalangan. Qissalar asosan, payʼambarlarga, ularning sifatlari, alohida xususiyatlarini ta'riflashga qaratilgan. Muallif har bir qissa avvalida payʼambarning sifatini bayon qiladi va o'sha payʼambar hayoti bilan boʻliq boʻlgan hodisalarni yorituvchi she'riy parchalar keltiradi. Keyin esa nasrda qissaning asosiy mazmuni boshlanadi. Bu mazmun tarkibida bir-biri bilan boʻliq xalq ijodiga aloqador bir qancha rivoyat va hikoyatlar yoritib beriladi. SHu jihatdan IOsuf, Sulaymon payʼambar, Luqmoni Hakim to'ʼrisidagi qissalar juda xarakterlidir. Fikrimizning izohi sifatida Sulaymon haqidagi qissa mazmuniga e'tibor qilaylik:

Podshohlik Sulaymonga otasi Dovud payʼambardan meros qoladi. Sulaymonning podshohlighi nihoyatda ioksak edi. Naql borki, Hazrati Dovud Sulaymonni taxtga chiqarib xalqqa xalifa qiladi. Go'yo xudo farmoni bilan u jami hayvonotu parrandalarning tilini biladi. Sulaymon kecha kunduz munojot qilib, xudodan menga hech kimda bo'lmagan mulk bergin, deya so'raydi. Sulaymon Ma'rribdan Mashriqqacha podshoh bo'ladi, devu pari, insu jinslar uning farmonida edi.

Mana shu qissaning tarkibida Sulaymon bilan boʻliq qator mustaqil mazmundagi hikoyatlar keltiriladi. Jumladan, bir hikoyatda shunday deyiladi: Bir kuni Hazrat Sulaymon boyqushdan so'radi, nima uchun doim vayronalif erni hohlaysan? Boyqush aytdiki, mani bu olamdagi merosimdir. YAna aytdiki, na uchun xalq orasida iormaysan, aytdiki, odam farzandlari bir-biriga qiladigan zulmdan qo'rqaman.

Sulaymon va qarinchqa, Sulaymon va Bilqis kabi hikoyatlarda birinchi navbatda Sulaymon payʼambar to'ʼrisida emas, ko'proq podshoh Sulaymon to'ʼrisida gap borayotgandek tuoladi. Sulaymonning payʼambar sifatidagi karomati deyarli ko'zga tashlanmaydi.

Sulaymonning podshohlik shavkati, dabdabasi xuddi xalq ertak va dostonlaridagi adolatli podshohlar tasviriga o'xshaydi. Muallif shunchaki bayon qilmay, balki mubolara, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi, asar badiiyatiga sayqal beradi.

SHuningdek, Sulaymonning nomozi bomdoddan namozi shomgacha el bilan mamlakat ishining maslahatini qilishi, faqat taxtga o'tirganda shohona kiyim kiyib, qolgan paytda oddiy kiyimda yurishi, o'zi savat va zambil to'qib sotishi, xalqqa har kuni ovqat tortishi kabi xususiyatlar ham uni, ertaklardagi sahiy, odil, raiyatparvar podshohlar obraziga yaqinlashtiradi. SHunday holni Dovud payrambar qissasi bayonida ham ko'ramiz. Dovudning shon-shavkati andor ertdiki, bir necha kishi posbonlikda yotar edi. Kechalari o'zi hech kimga bildirmay ko'chalarda yurib uchragan kishidan podshohlarning yaxshimi, deb ahvol so'rardi. Bir kecha bir qariya aytdiki, shohimiz yaxshi, ammo urning haqqini aydi. SHundan so'ng Dovud xudoga iltijo qilib, bir hunar so'raydi. Xudo unga temirchilik hunarini beradi. Temir Dovud qo'lida mumdek ertir edi. Dovud vaqtining bir qismida ibodat qilib, ikkinchi qismida halol rizq uchun mehnatga qo'l urar, uchinchisida podshohlik qilardi edi.

«Qissasi Rabfuziy»dagi qissalarning ko'pchiligi kompozitsion qurilishi nuqtai nazaridan hikoya ichida hikoya qolipida tuzilgan. YA'ni umumiy qissa ichida uning mazmunini to'ldirib, boyitib turuvchi bir qancha mustaqil сюжетli hikoyalar ham keltiriladi. Bu hikoyalar yagona qoliplovchi hikoya mazmuniga singdiriladi. Jumladan, yuqorida kuzatganimizdek, Hazrati Dovud haqidagi qissa tarkibidan turli mazmundagi hikoyatlar o'rin olgan. Ularda asosan, halollik, mehnatevarlik, insonparvarlik royallari ilgari surilgan. Masalan, bir hikoyada inson qalbi, ko'ngil dunyosi bilan bo'liq ibratli voqea tasvirlanadi:

Dovud payrambar bir xotinni yoqtirib qoladi. Uning ertini urushga yororadi. Maqsad, u o'lsa xotiniga uylanish edi. SHunday bo'ladi ham. Xotin agar o'ril ko'rsam podshohligingni berasan, degan shart bilan Dovudga tegadi. Bir kun ikki aka-uka kelib Dovudga arz qiladi. Biri aytadi: biz aka-ukamiz, akamning to'qson to'qqizta sovliq qo'yi bor, mening bitta qo'yim bor edi, uni ham tortib oldi.

Dovud aytadiki, mening zamonamda kishi kishiga shunday zulm qiladimi, buni qanday izohlaysan deydi. Dovud o'z savoliga shunday javob a'hitadi: «Siz o'zingiz to'qson to'qqizta xotiningiz bo'laturib, ularning ustiga Uryoni fazotga roborib, o'ldirib, xotinini oldingiz, bunday ziyoda zulm bo'ladimi?» Dovud anglasa ular farishtalar a'kan. Dovud o'zining osiy bo'lganidan xabar topib xudoga nola qiladi. Sahroga chiqib a'rtaro – kech ko'z yosh to'kadi. Ko'zidan oqqan yoshiga atrofida giyohlar o'sib, Dovud orasida ko'rinmay qoladi. Inson suratidagi farishtalar tomonidan uning xotin masalasida qilgan ishi adolatizlik, zulm a'kanligi ta'kidlanadi. Hatto payfambardek zot ham gunohlardan holi a'masligi ko'rsatiladi. Bunday hol faqat Dovud yoki Sulaymon to'frisidagi qissalardagina a'mas, boshqa qissalarda ham uchraydi.

Ma'lumki, xalq o'rzaki ijodida yoki yozma adabiyot namunalarining ko'pida yomon xulq-odatlar qattiq qoralanadi, fosh a'tiladi va asar oxirida bunday shaxslar yo jazolanadi, yoki adolatga roz o'giradi. Bu qissalarda a'sa gap payfambarlar ustida borayotganligi uchun ularning osiylikka yo'l qo'yganlari biror mo''jiza, yo farishta, yoki Jabroil orqali ogohlantiriladi. Ular gunohi ko'p toat ibodat qilib, xudoga tavba qilgach kechiriladi.

«Qissasi Rabfuziy» hikoyatlariga nazar tashlar a'kanmiz, ularda rang – barang obrazlarning mavjudligini ko'ramiz. Rabfuziy xalq o'rzaki ijodi namunalariga suyangan holda, turli – tuman obrazlar yaratadi. CHunonchi, a'rtaklarga xos devu parilar, insu jinslar, turli tabiat jonzotlari, (chumoli, qaldirfoch, ari, bo'lbo'l va boshqalar) faroyib xususiyatli insonlar tasviri badiiy vositalar yordamida obraz darajasiga ko'tarilgan.

«Qissasi Rabfuziy»dagi hikoyatlarda ba'zi personajlar tasvirida xalq o'rzaki ijodining ta'siri kuchli seziladi. Masalan, Amalqa qabilasi odamlarini tasvirlashda muallif xalq ijodida keng tarqalgan o'ta kuchli mubolara san'atini mohirlik bilan qo'llaydi:

Amolqa qabilasining odamlari uzun bo'ylik, bo'yi uch roz qarich, ko'ksi etti qarich a'edi. Bani Isroil ularga o'n ikkita baquvvat, baland bo'ylik kishilardan elchi roboradi. Ular ancha rorib bir kishining bo'riga kirib uzum eb tursa, a'gasi kelib

qoladi. Ularni tutib oltitasini bir engiga, yana oltitasini boshqa bir engiga solib, podshohga olib borib, engini erga qoqadi. U erdagilar hayron bo'lib, bu nechuk qo'llik ayoqlik qurtlar deb kaftlariga olib tomosha qiladilar. YOKi Muso payfambarning hassasi erga sanchilsa, mevali daraxt, dushmanga qarshi katta ilon, daryoga ko'prik bo'lish kabi xususiyatlarga ega. Qissada albatta, bu xudoning payfambarlarga ato etgan ilohiy karomati bilan bo'liq, lekin xalq o'rzaki ijodi asarlarida bunday sehrli narsalar, hodisalar tasviri juda ko'plab mavjudki, bunday sehrli hodisalar ham o'quvchiga xuddi ana shu e'rtaklardagi tasvir taassurotini beradi.

IOqorida hikoyatlar misolida kuzatganimizdek, qissalarda folklor uchun xarakterli bo'lgan va umuman, SHarq adabiyotiga xos mubolafa tasviri ko'p uchraydi.

Masalan, IOSufning akalaridan biri YAHudo na'ra tortganda Misr xalqi hushsiz yiqilardi. YOKi Ovj bin Anuqning tasvirini ko'raylik. U odam alayhissalomning qizi (Anuq)ning o'g'li Nuh davrida yashagan. Uning ikki oyof'i orasi bir kunchalik yo'l edi, daryolardan qo'li bilan katta baliqlarni tutib, oftobda pishirib er edi. To'fon uning tizzasidan ioqori chiqmasdi, agar biror kent aholisi achchig'ini chiqarsa, bir oyof'ini kentning bu boshiga, ikkinchisini u boshiga qo'ysa, kent ahli ko'milib qolar, ioz botmon taom nahorlik bo'lmas edi. Bir rivoyatda aytilishicha, Avj bin Anuq daryo labida oyof'ini narigi qirfoqqa qo'yib o'tirganida Azroil jonini olgan, oyoq suyagi ko'prik bo'lib qolgan, bir necha yildan keyin uning ikki boshini teshib ichidan karvon o'tadigan yo'l bo'lgan ekan.

Asardagi «Nuh to'foni» qissasi esa bundan ham qiziqarlidir. Hikoyatdagi arining fo'nf'illashi, qaldirfochning odamlar orasida bo'lishi, ilonning qurbaqaga o'chligi bular hayotiy hodisalardir. SHu bilan birga ular haqidagi hikoyatlar o'quvchini zeriktirmaydigan, qiziqarli folklor namunasining o'zginasidir.

Afsona-hikoyalarda ham qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o'zlariga homiy deb hisoblagan shaxslarni ulurlaganlar va shu bilan o'z diniy e'tiqodlarini ham namoyon etganlar. Masalan, xalqimizda har bir insonning taqdiri tangri tomonidan belgilangan bo'ladi, ammo inson hatti-harakati, niyati bilan o'z

qismatini o'zgartirishi mumkin degan tushunchalar bor. Asarda shu fikrni tasdiqlash uchun quyidagi afsona keltiriladi.

«Muso kunlardan bir kuni Tangri Taolo oldiga ketayotganida, yo'lda oyoq qo'li yo'q majruh bir odamni ko'ribdi. Odam undan o'zining taqdiriga jannat yoki do'zax yozilganini bilib berishni so'rabdi:

Tangri payfambarga: «U odamning oxirgi joyi do'zax bo'ladi. Chunki umr bo'yi uni əmak – ichmakka muhtoj qilmadim, ammo biron marta «Xudoga shukur» demadi, - debdi. Muso payfambar qaytishida haligi odam undan javob kutibdi. Payfambar bor gapni aytibdi. SHunda haligi odam: «Bo'lmasa yaratgan əgamga ayt, men o'lganimda tanamni shunaqa katta qilib yuborsinki, boshqa hech kimga do'zaxdan joy qolmasin, - debdi. Ana shu gapdan keyin bechora banda jannati bo'lgan əkan.

SHunday qilib, o'zbek adabiyoti avvalida hikoya janrida ko'plab asarlar paydo bo'lgan əsa-da, ularning aksariyati diniy xarakterda, bir qismi əsa pandnoma mazmunida bo'lgani, bularga Qur'oni karim va diniy asarlar, shuningdek xalq o'rfzaki adabiyotidagi bir qator yaratishlar ta'sir etgani haqiqatdir.

2.2. Navoiy hikoyatlari shakllanishida folklorning ta'siri

Rabʼo'ziydan keyingi hikoyachilik asosan tarjima adabiyotida rivojlangani kuzatiladi. CHunonchi, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”idagi ko'plab axloqiy hikoyatlar Nizomiy Ganjaviy qalamiga mansub. CHunki bu asar shoir “Menki SHayx Nizomiydan olib choshni, Pishurdim bu laziz oshni” degani bilan, aksariyat hikoyatlarni Nizomiy asaridan olgani sezilib turadi. Ammo Hazrat Alisher Navoiy ijodiga kelib an'anaviy hikoyatchilikda o'ziga xos “portlash” ʻozaga keldi deyilsa mubolafa bo'lmaydi.

Alisher Navoiyning epik asarlarining deyarli barchasida , adabiy asarlari, jumladan, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-luʼfatayn”, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo” singari asarlarida bir qator hikoyalarga duch kelinib, hikoyachilik turkiy adabiyotining bir yo'nalishi sifatida qaror topganiga ishonch uyʻotadi. SHubhasiz bu hikoyatlarning ʻozaga kelishida xalq ijodidagi afsona, asotir, rivoyat, qissa va boshqa janrdagi asarlarning alohida o'rni borligi kuzatiladi.

Alisher Navoiy asarlaridagi ko'pchilik hikoyatlar, ular qaysi manba asosida ishlangan bo'lishiga qaramay, ʻoyaviy-badiiy xususiyatlari bilan xalq hikoyatlariga uyʻunlashib ketadi.

Anushirvoni odil SHarq xalqlari adabiyotidan keng o'rin olgan an'anaviy obrazlardan biridir. Anushirvon (531-589) Sosoniy shohlaridan bo'lib, shon-shavkati bilan shuhrat qozongan ʻedi. Tarix zaminidan adabiyot olamiga o'tgan

Anushirvon yarim tarixiy, yarim afsonaviy qahramon tusini olib odillikning ramzi sifatida talqin qilinadi. U haqdagi hikoyatlar “Hayratul-abror” va “Tarixi muluki ajam” asarlaridan ham o’rin olgan.

“Tarixi muluki Ajam”dagi hikoyatlarning birida boʻ sotgan va boʻ olgan kishilar o’rtasidagi muammoli holatning Anushirvon tomonidan aql va zakovat, odillik bilan hal etilishi ko’rsatilsa, ikkinchi hikoyada Anushirvon insof va adolatning homiysi va posboni sifatida gavdalanadi:

“Bir kuni bir yo’lda tushub, kabob buyrdi. Tuz yo’q erdi. YAqinroq bir Kent ko’rundi. Birov bordikim tuz kelturgay. No’shiravon mubolaga qildikim, tuzni sotqun ol! Majlis huzzori aytilar: bu tuzfa ne miqdor baho bo’layki, sotqun olaylar? Dedikim, muncha miqdor nima uchun, podshoh nechuk yomon rasm qo’yay, yomon rusum juzviy bo’lsa, har kishi bir nima ortturub, ani kulliy qilurlar. Badnomlik ani bunyod qilfanfa bo’lur”².

No’shiravon axloq-odob va donishmandlik bobida ham beqiyos kishilardan biri sifatida ta’rif-tavsif qilinadi. Navoiy ham Anushirvon an’anaviy obrazining bu jihatlarini e’tibordan chetda qoldirmay, “Hayratul-abror” dostonida nihoyatda ibratli bir hikoyatni bayon etadi:

No’shiravon hali shoh bo’lib ko’tarilmagan vaqtda bir qizning ishq bilan notavon ahvolga tushib qoldi. Ko’ngli runcha singari to’la qon edi, lekin ram sirlarini pinhon tutardi. Unga visol muyassar bo’lgunga qadar cheksiz azob-uqubat va tashvishlarni boshdan kechirdi.

Bir kun u chamanzordan xilvat joyni tanlab, gulruh yori bilan suhbat qurdi. Baxtiyor shahzoda yorini quchmoqchi bo’lgan edi, gul’uzor ham bunga rozi bo’ldi. Dilbar hamdami tomon u qo’lini uzatganda, bir tup nargisga shahzodaning ko’zi tushib qoldi. SHunda ahvoli o’zgarib, u qo’lini tortib oldi. Sumanbar yori hayron bo’lib, so’radi: - Qo’lingizni uzatganingiz nimasi-yo, yana tortib olganingiz nimasi?

Adabli shoh bunga shunday javob berdi: - SHunday bir visol damida menga mone’lik qilgan narsa nargisning shahlo ko’zi bo’ldi. Hayo ko’zi bilan olijanoblik

² Алишер Навоий. Тарихи мулки Ажам. 14-том. 224-225-бетлар.

bu ishda unga kuch bermadi. Uning nargisdek ko'zlari yoshga to'lib, o'rnidan turdi-da, bu ishdan voz kechdi. Oxirida uning bu sof niyatligi, shunday hayochanligining xosiyati uni butun olamga shoh qildi, adolati esa olamni panohiga oldi. Aysh, ey Navoiy, qancha dilkash bo'lsa ham, lekin adab bilan hayo undan yaxshiroqdur³.

Bu hikoyatlar ko'pdan-ko'p xalq ertaklaridagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir odil podsho bular ekan..." deb boshlanuvchi an'anaviy sjojet va obrazlarni e'slatadi, foyaviy-badiiy xususiyatlari bilan folklor ildiziga bo'flanadi.

SHuningdek, adibning "Lisonut-tayr" dostonidagi hikoyatlar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Dostonda 63 hikoyat jamlangan bo'lib, bu hikoyatlarning ko'pchiligi xalq ijodi ta'sirida vujudga kelgan. SHu nuqtai nazardan qaraganda, "Lisonut-tayr"dagi "Majnun al-haq" hikoyasi xalq latifalari uslubida yaratilgani bilan ajralib turadi. Bu hikoyatda o'zini xudo yo'liga barishlagan devonaning sarguzashtlari hazilnamo usulda hikoya qilinadi. Ushbu hikoyaga asos bo'lgan sjojetning boshqacha varianti shu kunga qadar ham xalq latifasi sifatida yashab kelmoqda.

Ulu'f adib hikoyatlarining xalq o'fzaki ijodi bilan bo'fliqligi haqida so'z borar ekan, bunda albatta, Luqmon obrazi bilan bo'liq bo'lgan hikoyat, masal va hikmatlarning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqalishini unutib bo'lmaydi. Bu hikoyatlarda Luqmon eng murakkab mushkulotlarni ham o'tkir aqli va tadbiri bilan hal qiluvchi donishmand, so'zamol va hozirjavob qahramon sifatida talqin qilinadi.

"Tarixi anbiyo va hukamo"da Luqmon haqida bir necha hikoyat keltirilgan bo'lib ular hajman ixcham, mo''jaz, lekin ibratli ma'no olam-olam. Mana shulardan biri: "... Hojasi anga bu'ordikim, qo'y o'lturub, yaxshiroq uzvini pishurib keltur. Ul iorokini tila bila pishurib kelturdi. Y Ana bir qotla dedikim, qo'y o'lturub, yamonroq uzvini pishurib keltur! Hamul iki uzvdin kelturdi. Hoja nuktasin so'rdi ersa, dedikim ko'ngul noshoyista af'oldin va til noboyista aqvoldin

³ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. Насрий баён килувчи А.Ҳайитметов. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т., 1974, 57-бет.

beri bo'lsa, alardin yaxshiroq uzv yo'qtur, va agar bo'lmasa, alardin yamonroq uzv yo'qtur"⁴. Bu ibratli hikoya SHarqning juda ko'p allomalari asarlaridan o'rin olgan.

Navoiy ko'p asarlardan, jumladan "Qissasi Rabruziy"dan o'rin olgan Luqmon haqidagi yana bir hikoyatni bayon etadi: "YAna biri bukim, xojasi anga buordikim, kunjud ek! Ul arpa ekdi. Xoja so'rdikim, arpa ekib bar kunjud nachuk toparsan? Dedikim, chun sen nosoyisht ish qilib, Tangri Taolodin rahm va jannat tama' qilursen, men ham dedimkim, shoyadkim arpa eksam, kunjud bar topqaymen. Xoja mutanqabih bo'lub, ani ozod qildi"⁵. Bu hikoyatda Luqmon zulm-zo'rlikni achchiq kulgu bilan fosh etuvchi xalq qahramoni – Afandi kabi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Luqmon haqidagi hikoyatlar "Saddi Iskandariy" asarida ham uchraydi. Bu hikoyatlardan birida naql qilinishicha, Luqmon eski bir vayronada yashar ekan. Bundan taajjublangan bir kishi Luqmonga shunday savol beribdi:

Ki yorutub er uezini donishing,
Nedin yo'q jahon ayshi birla ishing?
Vatan aylamay turfa koshonae,
Qilib san makon kunji vayronae?

Bu savolga Luqmon tubandagicha javob qaytaribdi:

Javob aytti piri omuzgor:
"Ki vayrona ichra uzun ro'zgor.
Bu kim chufz yanglif basar ayladim,
Sorindimki, daf'i zarar ayladim,
Ki chun qilmadim mayl olamfa hech,
Meni ul dori solmafay famfa pech.
Muni ko'rki davrondin eltur chori,
Olur mendin ushbu buzufni dori...
CHu oxir adam sari qo'yfum qadam,

⁴ Алишер Навоий. 15-том. 231-бет.

⁵ Ўша асар. 231-232-бетлар.

Manga bordur ortuq bu vayrona ham.

Jahondin necha ʔl haroson ʔrur,

Aning ranjiddin maxlas oson ʔrur”⁶.

Hikoyada Luqmon oʻtkinchi dunyo lazzatlaridan voz kechgan donishmand sifatidagina ʔmas, balki mol-dunyo toʻplashni hayotining bosh maqsadi qilib olgan nafs bandalariga qarshi nafratlangan kishi sifatida ham namoyon boʻladi. Bu nafrat Navoiyyona ramz va kinoya, istehzo libosida berilgan. Alisher Navoiy hikoyatlarida Luqmon hakim va donishmand sifatida gavdalanadi.

Oʻzbek xalq hikoyat va ʔrtaklarida ham Luqmon tabib va donishmand qiyofasida namoyon boʻladi. U xalqqa shu darajada yaqin boʻlib ketganki, xalq koʻpicha oʻz bilimi, tajribasi va tadbirlarini Luqmon timsolida mujassamlashtiradi. Masalan, “Luqmon hakim” ʔrtagida⁷ xalq tabobatidagi turli usullar va dori darmonlar Luqmon bilan boʻrlab beriladi. ʔrtakda Luqmon Iskandarga zamondosh kishi sifatida tasvirlangan.

Iskandar Zulqarnayn “Odami obi” (Suv odami)ni bilmoqchi boʻlib, vazirlarining maslahati bilan zindondagi bandilardan birini shishadan yasalgan uyga solib “SHoʻr daryo”ga tushiribdi, u “odami obi”larni koʻrib podshoning tobe boʻlish haqidagi taklifini aytgan ʔkan, ular bir kosa un berib, podshohing shu undan non qilib esin, kosani oltin bilan toʻldirsin, agar kosa toʻlsa biz tobe boʻlamiz, deyishibdi. Faznachi tanga-oltin solgani bilan kosani hech toʻldira olmabdi. Folchilar va qurandozlar kosaga tuproq solgan ʔkanlar, oltinlar koʻrinib kosa toʻlibdi. Podshoning xotini undan non yopaman desa, non oqib ketaveribdi. U boshqa undan non yopib beribdi, podsho nonni eb “hech asorat, foydali narsa yoʻq” debdi.

Podshoning xotini tilanib kelgan devonaga yopilmay qolgan nonni beribdi. Devona ariq boʻyida tol soyasida nonni ivitib eb ketayotganda tol tilga kirib, oʻz xosiyatini aytib, “sil kasaliga” darmonligini soʻzlabdi. SHundan keyin boshqa daraxtlar, giyohlar ham tilga kirib, oʻz sir-asrorlarini, shifobaxshliklarini

⁶ Алишер Навоий. Хамса. 826-827-бетлар.

⁷ Ўзбек халқ ʔrtaklari. 2-том. 437-447-бетлар.

aytishibdi. Devona katta hakim bo'lib ketibdi. Bu Luqmoni hakim ekan. ʻOrtakning davomida Iskandarning Luqmoni Hakimga zulmi, o'rliga Iskandar o'rlidek libos tikib bergani uchun o'zini ham, o'rlini ham tiriklayin ko'mdirgani, ammo bularning o'lmay omon qolishi, Iskandar o'lib, o'rniga o'fli podsho bo'lgani, uning tomofiga suyak tiqilib qolgani, Luqmonni keltirishgani, Luqmon uning jahlini chiqargani, shohning razabi bilan birga suyakning otilib chiqqani haqidagi voqealar hikoya qilinadi.

Navoiyning hikoyatlari kabi uning masallari ham xalq ijodi bilan hamohang. “Hayratul-abror”dagi “SHer bilan Durroj” masali, “Saddi Iskadariy”dagi “Kabutar” hikoyati, “Lisonut-tayr” tarkibidagi masallar, sjojeti va kompozitsiyasi, obrazlari va uslubi jihatidan xalq ijodiga, xalq masallariga monanddir.

Hikoyatga yaqin turadigan va uning bir ko'rinishi sanalgan mif afsonaning bir xili bo'lib, badiiy ijodning eng qadimiy turlaridan biri hisoblandi; ularning yaratilishi ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Ma'lumki, tabiiy ofatlar – dovul, suv toshqini, zilzila hamma davrlarda ham kishilarni dahshatga solgan, olamning sirli hodisalari insonni hayratlantirgan. Ajdodlarimiz er va osmonni, oy va quyoshni hamda boshqa narsalarni jonli deb tasavvur qilganlar, ayrim xayvonlarni muqaddas bilib ularga topinganlar. Qadimgi insonlar tasavvurida olamda ularga do'st va dushman bo'lgan turli xil kuchlar mavjud bo'lib, ruhlar, devlar, jinlar sifatida tasvirlanadi. Mana shunday tasavvurlar natijasida turli xil miflar: kosmogonik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar paydo bo'lgan. Kishilarning fetishizm¹, animizm², totemizm kabi diniy e'tiqod va qarashlari mifologiyaning vujudga kelishida katta rol o'ynadi va ma'lum darajada kishilarni hayotni sevishga, kelajakka umid va ishonch bilan qarashga o'rgatdi. Mif-asotirlar kishilarning zaif tomonlarini ham, kuch-qudratini ham, orzu-armonlarini ham cheksiz fantaziya-xayolot asosida talqin qilib, adabiyot va san'atning rivojiga zamin yaratdi. Qadimgi O'rta Osiyo va Eronda vujudga

¹ Жонсиз нарсаларни ғайритабиий хусусиятга эга деб ишониш ва уларга топиниш.

² Бирор нарсага кўр-кўрона ишониш, муқаддас деб билиш.

kelgan ko'pchilik miflarda (boshqa xalqlarda bo'lganidek) yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat o'rtasidagi kurashlar asosiy o'rin tutadi.

Uluq mutafakkir Alisher Navoiy ijodiyotida ham qadimgi mifologiya va afsonalar chuqur iz qoldirgan. Alisher Navoiy mif va afsonalar bilan turli manbalar orqali tanish edi. Bu manbalar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, badiiy adabiyot, diniy kitoblar va boshqalardan iboratdir. Alisher Navoiy mif va afsonalar bilan bevosita tanish bo'lishida ayniqsa, "SHohnoma" alohida o'rin tutadi. Chunki "SHohnoma"ning asosini xalq mifologiyasi, xalq orzaki ijodi tashkil etadi.

Alisher Navoiy asarlariga mifologiya ta'sirini o'rganar ekan, prof.N.M.Mallaev ularni uch guruhga ajratib ko'rsatadi³: 1. Evgulik miflari; 2. YOvuzlik miflari; 3. Kosmogonik miflar.

Kaюmars, Hushang, Taxmuras va Jamshid haqidagi tasavvur va qarashlarda inson va uning zurriyodi haqidagi evgulik timsollari yaratilgan. Mifologik tasavvurlarga ko'ra, Kaюmars Axura Mazda tomonidan yaratilgan dastlabki inson sifatida talqin qilinadi. Kaюmars haqida o'rta asr tarixchilari Tabariy, Mas'udiy, Saolibiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi. Kaюmars haqidagi mifologik qarashlar nechorlik xilma-xil bo'lmasin, ammo ularning negizi bir. Kaюmars dastlabki inson, dastlabki evgulik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Davrlar o'tishi bilan Kaюmars haqidagi mifologik tasavvurlar yozma adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Firdavsiyning "SHohnoma"si yaratilishi bilan ushbu timsol yozma adabiyotdan mustahkam joy egalladi. "SHohnoma"da Kaюmars kishilarni vahshiylikdan qutqarib, ularni mehnat va madaniyatga olib chiqqan, chorvachilik va hunarmandchilikka o'rgatgan inson sifatida talqin qilinadi: Kaюmarsga jahon shohlik bu'ordi,

Ilk bora manzilin tof ichra qurdi.

Taxtu baxtin topib tofdan farovon,

³ Маллаев Н.М. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. Т., 1974, 97-бет.

Yo'lbars terisidan qilardi chopon.
U boshlab insonni qildi parvarish,
YAngilandi kiyim-kechak va əmish.
O'ttiz yil olamda shohlik qildi u,
Nur sochib, quyoshu mohlik qildi u.
Ne turli jondor bor olamda, bari,
Orom istab kelar Kaomars sari⁴.

Insonga baxt-saodat ato qilish, uni taraqqiyot sari boshlash umuman, ko'pgina miflarga xos xususiyatdir.

Alisher Navoiy Kaomars va uning avlodlari Hushang, Taxmuras, Jamshid haqida "Tarixi muluki Ajam" asarida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Qadimgi Ajam – Əron shohlarini to'rt sulola – xronologik tabaqaga ajratish bir an'ana bo'lib qolgan. Bu an'ana mifologik obrazlarni ham tarixda o'tgan shohlar sirasiga qo'shib yuborgan, afsona bilan tarix hududi qo'shilib ketgan edi. Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da "Ajam tarixida furs salotinini to'rt tabaqa qilibturlar⁵" deb ta'kidlaydi. Bular: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar. An'ana bo'yicha Navoiy Kaomars, Hushang, Taxmuras va Jamshidni peshdodiylar sulolasining birinchi hukmdorlari sifatida talqin qiladi.

Turli manbalarni diqqat bilan o'rganib chiqqan va ulardagi mushtaraklik bilan birga farq-tafovut va ziddiyatni chuqur idrok etgan Alisher Navoiy Kaomars haqida shunday ma'lumot beradi: "Tarix ulamosi ittifoqi bila birovkim saltanat qildi, Kaomars erdi. Ammo uning nisbati bobida ixtilof ko'pturkim, Muft deb tur: Odam alayhissalomning nabirasidur va ba'zi Fursdin aning Nuh alayhissalomning avlodi debturlar. YAna dari so'z ko'p bor, ammo sihatdin yirofroq uchun bitilmadi. Odam deganlar, qavli bila ani Gilshoh debturlar, bu ma'ni bilakim bolchiqdan yaratildi. YA'ni kishi pushtidin emas erdi..."⁶. Navoiy va Abulqosim Firdavsiy singari, Kaomarsni birinchi podsho va insoniyat uchun ko'p foydali ishlar qilgan adolatparvar va hunarpesha, ijodkor sifatida ta'riflab uluflaydi. "...

⁴ Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Биринчи китоб. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1975, 42-бет.

⁵ Алишер Навоий. Асарлар. 14-том. 185-бет.

⁶ Алишер Навоий. Асарлар. 14-том. 185-бет.

Har taqdir bila podsholiq qoidasi andin burun yo'q ʻrdi. Bu qoidani ul tuzdi. Dafi avval kishikim, shahr bino qildi ul ʻrdi Damovandni bino qildi, ammo ko'prak avqot anda bo'lur ʻrdi. Ming yashadi va lekin umrining oxirida qirq yil saltanat qildi. Dafi Siyomak o'fli Xushangkim, nabirasi ʻrdi, valiahd qilib, vafosiz jahonra vido etti..."⁷ Navoiy shohlarning adolat, obodonchilik, ilm-ma'rifat, kasb-hunar sohasidagi faoliyatiga katta e'tibor beradi va shu yo'l bilan ham adolatparvar va ma'rifatparvar podsho haqidagi orzu-armonlarini tarfiib etadi.

Mifologik qarashlarda ham, Navoiy talqinida ham Kaomarsning nabirasi bo'lgan Hushang – yaxshilik va yoruflik timsoli. Ammo uning, demakki, bashariyatning dahshatli dushmanlari bor. Bular – devlar. Navoiyning hikoya qilishicha, devlar sajda – ibodat bilan mashful bo'lgan Hushangni boshiga tosh bilan urib, yanchib o'ldiradilar. Bu kabi talqinlar "Avesto", "Bundaxishn" kabi adabiyot va tarixga doir yodnomalarda ham uchraydi.

"Tarixi muluki Ajam"da tasvirlanishicha, Hushangning o'fli Taxmuras ham otasining izidan borib yaxshi ishlarni amalga oshiradi" "... Xaloyiq rivoyatifa va mamolik himoyatifa jidd bila mashful bo'ldi. Va aning zamonida azim qahat voqe' bo'ldi. Faniylarfa buordikim, chosht taomi birla o'tkargaylar va shom taomin masokinga bergaylar. Va ro'za tutmoq andin sunnat qoldi".

Adolat va hunarpeshalikda Jamshid yanada ilgari ketadi. U turli harbiy qurollar kashf etadi, ko'prik, hammom va boshqa narsalar quradi, shaharlar barpo etadi, navro'z bayramini odat tusiga kiritadi va hokazo. Ammo Jamshid keyinchalik o'z ishlari bilan fururlanib ketib shaytonning makri bilan noto'fri yo'lga tushib qoladi va umrining poyonida yovuz Zakhok tomonidan arra bilan ikkiga bo'lib o'ldiriladi. "Oqibat mufrit shoh fururi va azim davlat takabburi dimofifa fosid xayol solib olamni o'z ibodatifa amr qilib, o'z surati bila butlar yasab, aqolim va kishvarlarfa yiborib elga o'zining parastishini buordi"⁸.

Xullas, boshqa manbalarda bo'lganidek, mifologik shohlar "Tarixi muluki Ajam"da rasmiy-tarixiy shohlar qatoridan o'rin olgan.

⁷ Алишер Навоий. Асарлар. 14-том. 185-186-бетлар.

⁸ Алишер Навоий. Асарлар. 14-том. 188-бет.

Alisher Navoiy Karomars, Hushang, Taxmuras, Jamshid kabi mifologik shohlarga yashagan muhiti nuqtai nazaridan baho berib, adolat va xalqparvarlik royasini ilgari surdi.

Adib mifologik shohlar tasvirida reallik bilan fantaziyani, haqiqat bilan afsonani uyfunlashtirib, ifodada xalq hikoyasi, xalq ertaklari uslubidan bahramand bo'lgan.

Abadiy hayot haqidagi armonli orzular turli afsona va miflarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Qadimgi Bobilning "Gilgamish haqida doston", "Adam haqida doston" kabi asarlari o'lmaslik istagi haqidagi miflar zaminida vujudga kelgan⁹.

Qadimgi mifologiyada vujudga kelgan "o'lmaydiganlar" obrazi, abadiy hayot barishlovchi obi hayot, giyoh, meva va boshqa tushunchalar keyin ham davom etdi, ba'zilar diniy mohiyat kasb etib badiiy adabiyotdan ham o'rin oldi.

Alisher Navoiy ijodida abadiy hayot haqidagi mifologiya izlari "Qaqnus" va "Samandar" obrazida hamda Iso Masih, Xizr nomi bilan bo'liq holda saqlanib qolgan.

"Lisonut tayr" dostonida qaqnus timsoli yaratilgan bo'lib, Alisher Navoiy Fariddin Attorni ota qaqnusga, o'zini esa qaqnus bolasiga o'xshatadi. Qaqnus bir umr o'rmonda yashab o'tin yirar, umrining oxirida butun san'atini ishga solib kuy kuylar, barcha qush va hayvonlar yirilar, kuy ta'siri bilan ko'pi halok bular, qaqnus kuyni tugatib, o'tin xirmoniga o't yoqar, alanga ko'kka ko'tarilib, hamma kuyib kul bular, ammo mo'jizadek kul ustida bir qaqnus bola paydo bular ekan. Bu voqealar qadimgi yononning "Sirena" haqidagi mifiga ham o'xshab ketadi. Mifologiyada aytilishicha, baliq dumli go'zal – dengiz ma'budasi ajoyib qo'shiqlar kuylab, dengizchilarni halokatli joylarga boshlar ekan.

Alisher Navoiy ijodida uchraydigan abadiy hayot kechiruvchi obrazlardan yana biri samandardir. Samandar ham qaqnusga monand bo'lib, bu jonivor afsonada aytilishicha, go'yo o'tdan paydo bo'lib, o't ichida yashar ekan. Alisher

⁹ В.И.Авдиев. История древнего Востока. М., 1953, стр.-112-113.

Navoiy samandar obrazidan ham badiiy vosita sifatida foydalanib, ma'lum bir maqsad yoki foyani ilgari suradi.

Otashkada o'tida samandar topar hayot,
Ko'nglim o'ti valek samandarni kuydirur.

Oshiq ko'nglidagi ishq o'ti shu darajada halokatli va kuchliki, u o'tda paydo bo'lib, o'tda yashovchi samandarni ham kuydiradi.

Afsonalarda talqin qilinishicha, Iso payfambar raqiblari tomonidan yo'roch xochga mixlab o'ldiriladi. Lekin ilohiy qudrat bilan qayta tirilib, osmonga parvoz qiladi, abadiy hayotga erishgan Iso o'likni tiriltirish, bemorlarga o'zining bemorlarga o'zining mo''jizali nafasi bilan shifo baxsh etish qudratiga ega bo'ladi. Iso haqidagi diniy afsonalar SHarq musulmon mamlakatlarida ham keng tarqalib, diniy kitoblardan o'rin oldi.

Alisher Navoiy Iso haqidagi an'anaviy – diniy afsonalarni “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bayon etsa, badiiy asarlarida Iso timsolidan badiiy vosita sifatida foydalanadi. Adib “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Iso haqida so'zlab, uni “Modarzod payfambar” deb ataydi. “Masih” so'zining lu'aviy ma'nosi, Masihning tufilishi haqida ko'pdan ko'p mulohaza va ma'lumotlar borligini ta'kidlab, Iso mo''jizalari haqida hikoyatlar keltiradi:

“... va soyir mo''jizotidin biri xuffoshdurkim (ko'rshapalak), balchirdin ul hay'at bila yasab nafasini anga surdi va. Va ul nafasdin ruh topib uchdi va emdigacha bor ... Va ul uluqkim, Iso alayhissalom turguzdi Ibnal – Ajuz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani (kampirni) ko'rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur. So'rdi. Dedikim, o'rlim erdi va firoqidin betoqatman. Iso alayhissalom duo qilib, tengri taolo ul maytqa ruh kiordidi va o'luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilraykim burunfi holifa borfay va mavt saparoti bo'lmafay. Ruhullo duosi bila bu ish ham bo'ldi...”¹⁰.

Qadimgi mifologiyaning asosini yaxshilik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurashlar tashkil etadi. Yovuzlik miflari qahramonlari SHarq xalqlarida, ko'pincha dev, ajdar, jin va boshqalar qiyofasida namoyon bo'ladi. Mana shu miflar xalq

¹⁰ Алишер Навоий. Асарлар. 15-том. 233-бет.

orʼzaki ijodida qayta-qayta ishlanib, asrlardan asrlarga oʻtib kelayotgani kabi, yozma adabiyotda ham chuqur iz qoldirgan.

Bunday miqlar Alisher Navoiy ijodidan ham oʻrin olgan. Uning asarlarida dev, ajdar, yaʼjuj-maʼjuj kabi yovuz mifologik obrazlarni kuzatish mumkin. Bular ofat va zulmat, qabohat va razolat, oʻlim va kulfatning timsoli sifatida gavdalanadilar. SHoir bu obrazlardan konkret foyaviy-estetik maqsad yoʻlida, zamonasining voqea va muammolari haqida fikr-mulohaza ioritganda foydalanadi.

Alisher Navoiy asarlarida koʻp uchraydigan mifologik obrazlardan biri dev boʻlib, u hayot va kishilar, voqea va hodisalar, fikr-oʻylar toʻqnashuvida maʼlum oʻrin egallaydi. Lirikada shoir fikr va kechinmalarini bayon etishda devdan anʼanaviy obraz sifatida foydalansa, epik asarlarida сюжет va kompozitsiyada, voqealar rivojida foydalanadi.

Navoiy Sayid Hasan Ardasheriga yozgan mashhur maktubida yashagan muhitidan shikoyat qilib, uning “eli” - munofiq kishilarni shayton va devga oʻxshatadi:

Ne el, ne kishi, balki shaytonu dev,
Kelib barcha daʼb bedodu rev¹⁴.

Makr-hiyla, anʼanaga muvofiq - shaytonga, zulm va bedodlik devga xosdir. Maʼlumki, Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatining Astrobod davri xiyla murakkab va shoir uchun koʻngilsiz voqealarga toʻla bir bosqichdir.

“Farhod va SHirin”, “Sabʼai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida dev mifik-epik obraz boʻlib, u ijobiy qahramonlarning ezgu intilishi va kurashlari yoʻlida toʻranoq yovuzlikning timsoli sifatida tasvirlanadi.

Maʼlumki, Farhod IOnonga safari yoʻlida “uch ofat”ga yoʻliqadi, shu ofatlardan biri dev Axrimandir. Dev manzili ham xalq ertaklarida boʻlganidek, bir tomondan, nihoyatda ajoyib va faroyib, ikkinchi tomondan, xavfli va vahimali qilib tasvirlanadi. “... Devning boʻfu boʻstoni ne uchi koʻrinar, na qirfoʻfi bilinar edi. YOfochlarning ostida talay koʻkatlar koʻrinar, biroq bu koʻkatlar koʻk osmonidan ham yuqori boʻy choʻzgan edi. Har tomonga qaralsa, yuz minglab eski

¹⁴ Алишер Навоий. Фаройиб-ус-сиғар. 710-бет.

daraxtlar, har bittasining boshi falakdan yuqori. Har daraxtning gavdasida bir haybat bor, yaproqlarida esa bir taajjublik bor. U urning toʻfi boshdan-boshga devlar makoni boʻlib, kuchli dev shamol ketma-ket esib turadi... Har ariqchada oqqan suvning ovozi yozlab rulu shaytonning janjali tovushini beradi. Vahimalarning koʻpligi shu darajadaki, ariqdagi har bir toshni bir kesuk bosh deb bilasan... Ichi kuyib, kovagi ochilib qolgan har daraxt, goʻyo, rulu shaytonlarga chayla – olachuq boʻlib koʻrinadi. CHinorlari qoʻllarini tebratib: - Ey, bu erga kirgan kishi, tangri haqi uchun qayt! – deganday boʻladi...”¹⁵.

Bu parcha bobning ekspozitsiyasi boʻlib, u kontrastni kuchaytirishga, Farhodning shijoat va jasoratini koʻrtirib tasvirlashga xizmat qiladi. Alisher Navoiy yovuz kuch tasvirini berishda ham xalq ijodi uslubiin qoʻllagan.

“Qonxoʻr dev oyoq tovushini eshitib, nima ahvol ekanini bilmoq uchun boshini chiqardi... U oʻz qasridan fazab boʻluti kabi chiqib keldi. Boshdan oyogigacha zahar edi. Uning mafurur yurishidan zamon boʻstoni titrar va ovozidan osmon ayvoni darz ketar edi. Badanidagi har bir moʻyi bir oʻq kabi va balki ajdarga oʻxshash ilon kabi edi... Qoʻlida bir ustun, ustun emas, balki chinor, tekislikda goʻyoki bir minoraday edi. SHu xildagi gurzini koʻtarib olgan edi. Agar bu gurzi Elburs toʻriga tegsa, uni tuproq qilguday edi...”¹⁶.

Farhod mana shu dahshatli kuch bilan jang qiladi va uni mahv etadi. Farhod va Axriman tasviri Alpomish va Koʻkaldosh, Goʻroʻfli va Balo dev tasviri va ular oʻrtasidagi kurash epizodini eslatadi.

Farhod dahshatli kuchlar ustidan qolib chiqadi, dev Axrimanni demakki, yovuzlik kuchlarini engadi. Xalq eʼtaklarida boʻlganidek unga ilohiy kuchlar (ismi aʼzam) madad bersalar-da, aslida Farhodni kuch-qudrat, aql-iroda, shijoat va jasorat falabaga olib keladi. Sehr, moʻʼjiza tasviri zahirida real maqsad, inson va uning kuch-qudrati, aql-irodasiga ishonch foyasi bor. Dastlab dev, ajdar kabi yovuzliklarga qarshi kurashib qolib chiqqan Farhod keyinchalik moʻʼjizalar

¹⁵ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Ғ.Ғулом ишлаган насрий баёни. Ўздавнашр, 1956, 225-227-бетлар.

¹⁶ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Ғ.Ғулом ишлаган насрий баёни. Ўздавнашр, 1956, 229-бет.

ko'rsatib, "Nahrul-hayot" va "Bahrul-najot"ni bunyod etib, Axrimon timsol Xusravga qarshi kurashadi.

"Sab'ai sayyor" dostoni hikoyalaridagi Sa'dning jasorati va shijoati ham xalq dostonlaridagi qahramonlar faoliyati bilan uyfundir. Sa'd o'fir shartlarni, dahshatli to'siqlarni engib, sinovlardan o'tib, sevgilisining visoliga erishadi. U hayotning va inson toleining ashaddiy dushmani bo'lgan kuchlarni mahv etadi, tilsimlarni ochadi, donishmandlarning mushkul savollariga aql va farosat bilan javob beradi. SHu bilan birga, u SHahrisabz shohining begunoh kishilar qonini to'kishiga chek qo'yadi. Hikoyadagi dev Qatron va jodugar Zol yomonlikning majoziy obrazidir.

Alisher Navoiy tasviridagi devlar makoni-maskani, tashqi qiyofasi, kuch-quvvati, seyr-mo'jizasi va boshqa jihatlari bilan xalq doston va ertaklaridagi devlarga o'xshab ketadi. Masalan, "Farhod va SHirin"dagi dev tasviri bilan "Ionus pari" dostonidagi Firqis dev tasvirida ham mushtarak jihatlari borligi ko'zga tashlanadi.

To'rt oyoqli, ikki boshli bachchar,
Turqiga qarasang, misli ajdahor,
Olov qip sochadi o'zidan zahar,
Har siltanib etmish qadam yo'l bosar,
Farillaganiga to'fu tosh titrar.
Har ko'zi toboqday, olov sochadi,
Na'rasiga to'fu toshlar ko'chadi¹⁷.

O'fzaki va yozma adabiyotda dev tasviridagi mushtaraklik asosan fantastik tasvir, mubolafa va yomorda, majoziy obraz zahirida yotgan hayotiy maqsadda ifodalanadi.

Alisher Navoiy asarlaridagi yovuzlikning timsoli bo'lgan obrazlardan yana biri ajdardir. "Farhod va SHirin" dostonida Farhod va ajdarhoning jangiga butun bir bob (XXII) baxshlangan.

¹⁷ Гўрўғлининг туғилиши. Тўрт жилдлик. «Ёзувчи», Т., 1996, 142-143-бетлар.

Farhod ajdarni izlab yo'lga tushadi. Nihoyat, ajdarning alomatlari ko'rina boshlaydi. Ajdar balo singari haybat bilan forning romaloq gumbazi ichidan chiqib keladi... Uning quyruvidan ko'tarilgan to'zon ko'm – ko'k osmonni surma rangidagi gard bilan xiralantirar edi... O'fzi do'zax olovxonasining mo'risiday edi... U Farhodni tuz ko'rganday totib, so'ng qo'shinni iotmoqchi edi. Farhod vahimaga tushmaydi, u qilich va o'q-yoyini ishga soladi va ajdarni o'ldiradi.

Ochib o'fzin iotarfa ayladi xez,
Qilib haq yodini shahzoda ham tez.
CHEkib qavsi - quzahni bedarangi,
Anga bo'rlab sinon yanglif xadang.
Aningdek ochti ajdar o'fzini shast,
Ki dedi gurd anjum bo'sa bardast.
CHu ajdar ham baham erdi ravona,
O'qifra har ham o'ldi bir nishona.
Agarchi ajdahor bor erdi darron,
Vale ul o'q yiloni o'tti parron¹⁸.

“Ertaqlarda tasvirlanishicha, ajdar butun shahar, qishloq, hatto mamlakatni iotib iobormoqchi bo'ladi. Biroq xalq qahramoni kelib, iohoni o'ldirib, xalqni bu ofatdan qutqaradi”¹⁹. Farhod ham ana shunday qahramonlardan.

Xalq afsona va ertaklarida talqin qilinishicha ajdar xazinalar va boylik qo'riqchisi. «Farhod va SHirin»da ham u xazina qo'riqchisi. Ammo bu oddiy xazina bo'lmay, balki Faridundan qolgan afsonaviy xazinaning qo'riqchisi. Farhod mana shu xazinani qo'lga kiritadi va uni hoqon bilan vazir ixtiyoriga topshiradi. O'ziga esa mo'jizali qilich va qalqonni qoldiradi. Bularning hammasida cheksiz fantaziya, xayolot va mubolafa bor. Ammo shular zahirida bir haqiqat ham borki, bu haqiqat Alisher Navoiyning zo'rlik va yovuzlikka, qabohat va razolatga qarshi nafrat va fazabidir.

¹⁸ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Ўздавнашр, Т., 1956, 212-бет.

¹⁹ М.И.Афзалов. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. 59-бет.

Alisher Navoiy ijodida ayrim diniy mifologik obraz va tushunchalarga ham keng o'rin berilgan. Bu ya'juj va ma'jujlar haqidagi afsonalarga ham tegishlidir.

Diniy, tarixiy va ilmiy asarlarda ya'juj va ma'jujlar nomi bilan borliq juda ko'p afsona va rivoyatlar uchraydi. YA'juj va ma'jujlarning odamxo'r qabilalar ekanligi dastlab "Tavrot"da aytilgan bo'lib, ular qiyomat qoyim bo'lganda odamlarni ixtar ekan. SHu bilan birga Iskandar Zulqarnayn va uning ya'juj va ma'jujlarga qarshi devor qurishi haqidagi afsonalar "Qur'on"ga ham kiritilgan: "93... To (ketayotib) ikki to'rt o'rtasiga etib kelgach, u (to'rtlar ortida) biron gapni ang'lay olmaydigan qavmni uchratdi. 94. Ular: "Ey Zulqarnayn, shak-shubhasiz, (shu to'rtlar ortidagi) YA'juj va Ma'juj (qabilalari) Er i'ozida buz'funchilik qilg'uvchilardir. Bizlar senga bir (miqdor) to'lov to'lasak, biz bilan ularning o'rtasiga bir sad chekib (bir to'fon qurib) berurmisan?"- dedilar. 95. U (Zulqarnayn) aytdi: "parvardigorim menga ato etgan (saltanat) sizlar beradigan (mol-dunyodan) yaxshiroqdir. Bas, sizlar menga (mol-dunyo bilan emas, balki) kuch-quvvat bilan yordam beringlar, men sizlar bilan ularning o'rtasida bir devor bino qilay"²⁰.

Alisher Navoiy o'z asarlarida ya'juj va ma'jujlarni doimo zo'rlik va bosqin, ofat va dahshatning ramzi sifatida talqin qiladi. "Saddi Iskandariy"da bu obrazlarga kengroq o'rin berilgan. Zotan, Iskandar devori ya'juj va ma'jujlarga qarshi qurilgan tinchlik va osoyishtalik devori edi. Iskandar o'z i'orishlari davomida Qirvon o'lkasiga keladi, o'lka nihoyatda xarob bo'lib ya'juj – ma'jujlar yar'fmosidan musibat chekar edi. SHoir cheksiz xayol va fantaziyadan foydalanib ya'juj va ma'jujlarni shunday ta'riflaydi:

Taadud aro yo'q turur sonlari,
YAna sonsiz oyini nuqsonlari,
Qad uzra yoyilmish parokanda soch:
Biri bir qarishdur, biri bir quloch.
Dema soch, xashaku xas ma'dani,
Libos andin aylab borining tani.

²⁰ Куръони Карим. Таржимон Алоуддин Мансур. «Чўлпон», Т., 1992, 268-бет

Quloʻr ikki yondin boʻlub bir juft,
Najas tanlarin koʻzdin aylab nuhuft.
Kəlib rul barmoʻri barmoʻlari,
Vale dev tirnoʻri tirnoʻlari...
Burun ichlarin til bila pok etib,
Topib lazzat, oʻzni tarabnok etib...
Aningdekki, mabraz ariturga el,
Solurlar ani xoli aylarga bel.
Oʻrizdin toʻnguzdek chiqib ikki tish,
Vale erni qozmoq alar birla ish.
Na erniki ul tishlar etti taboh,
Qiyomatqacha andin butmay giyoh...
Alar yilda solib ikki qatra shoʻr,
CHiqib toʻr shikofidin andoʻrki moʻr²¹.

Mana shu vahshiy odamxoʻr qavm yiliga ikki marta Qirvon oʻlkasini talon-taroj qilar ekan. Oʻlka xalqining iltimosiga koʻra Iskandar yaʻjuj va maʻjujlarning yoʻlini toʻsib ikki toʻr oralifida ulkan devor qurdiradi. Dostonda realistik tasvir va badiiy fantaziya koʻpincha bir-biri bilan uzviy boʻlanib romantik tasvirdan realistik xulosa yasaladi. SHoir nazdida agar kishilar ahil-ittifoq boʻlishsa, har qanday yaʻjuj – maʻjuj yoʻlini – zulm va zulmat yoʻllarini oʻtib boʻlmas roʻy bilan toʻsish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hikoyachilikning shakllanib. kamol topishida folklorning beqiyos xissasi boʻlgan. Qolklor asarlari va ulardagi turli-tuman motivlar oʻzbek hikoyachiligining tadriji va takomilida bemisl ahamiyat kasb etgan.

²¹ Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10-том. Т., 1956, 334-335-бетлар.

III bob. O'zbek adabiyotida hikoyat janrining specifikatsiya va poetikasi masalasi

3.1. O'zbek adabiyotidagi hikoyatlarning foyaviy yo'nalishlari silsilasi va takomili

Mumtoz hikoyachilik tadriji haqida so'z borar ekan, uning foyaviy yo'nalishlari silsilasi haqida muayyan ilmiy xulosalarni qayd etish zarur deb hisoblaymiz. Negaki mumtoz hikoyachilik mavzulari turli-tuman bo'lib, ularda inson hayotining turli masalalari ba'zan mifologik detallar, ayrim hollarda afsonaviy timsollar, ba'zi hollarda esa rivoyaviy unsurlar qobirida shakllanib borgan. Muhimi shundaki, bu hikoyalarning aksariyati inson hayotining u yoki bu nuqtasiga aloqadorligi bilan e'tiborli bo'lib borgan. SHulardan kelib chiqib, mumtoz hikoyachilikning uzoq yillik tarixini ko'zdan kechirish va ularning mazmuniy silsilasini tuzib chiqish mumkin bo'ladi.

Mumtoz hikoyalar ijodkorlarning Olam va Odam haqidagi qarashlarining mo''jaz ifodasi sifatida, avvalo, diniy-ruhoniyl mavzulardan bahs etuvchi yaratiq sifatida namoyon bo'ldi. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit turkiy" tarjima asaridagi shartli nomlangan "Iso mo''jisasi" nomli hikoyatda Iso alayhissalomning o'likni tiriltirishi karomati bilan aloqador hikoyat beriladi. Bir odam Iso alayhissalomning shunday qobiliyatiga hasad qilib, bu karomatni o'zlashtirishni istaydi va payfambarni majbur etib, shu duoni o'rganib oladi va yo'lda ketayotib, Iso (a.s.)ning duoni o'rgatganligiga ko'nglida shubha uyfonadi va bir chuqurlikda sochilib yotgan suyaklarga ko'zi tushib, duoni sinab ko'radi. Bu suyaklar o'lgan sherning suyagi bo'lib chiqadi va u tirilib, falamis kimsani eb qo'yadi va yana suyaklarga aylanib qoladi. Adib bu bilan hikoyada qo'lidan kelmaydigan ishni orzu qilish va bunga sifinish yomon oqibatlarga olib kelishini uqtiradi. "Qisasi Rabfo'ziy", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Nasoyim-ul muhabbat" singari asarlarda ham diniy xarakterdagi bir qator asarlar paydo bo'ldiki, ularda ham Olam va Odam

haqidagi diniy qarashlar o'z aksini topdi, ularda insonning ruhoniyl komillikka undovchi royalar o'z mujassamini topdi. Diniy mazmundagi hikoyalar ham o'z navbatida bir necha silsilani tashkil etadi. Ularda dunyoning yaratilishi, Odam ato va Moma havo bilan borliq voqea va hodisalar, payambarlar hayotini, amallarini ko'rsatuvchi voqealar qalamga olingan hikoyalar tarzida tasnif qilish mumkin. "Qisasi Rab'uziy" dagi hikoyatlarning aksariyati diniy mazmunda bo'lgani bilan, ular inson hayotining muayyan qirralariga aloqadorligi bilan hayotiylik, reallik kasb etadi. CHunonchi, Nuh alayhissalom qissasi tarkibiga kirgan "Uzum hikoyati", "Qaldir'och va ilon hikoyati", Sulaymon alayhissalom qissasi tarkibiga kirgan "Sulaymon va qarinchha", "Uchar otlar" singari hikoyatlar bugunlik kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

YAna bir turkum hikoyalar tasavvuf shayxlari haqida bo'lib, ularda shayxlarning xavoriq-odotlari haqida so'z ketadi va insonlarni komillik yo'lida riyozat chekib, yaxshi amallar qilishga undaydi. Bunday hikoyalar bir qator asarlarda uchraydi. CHunonchi, Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoniga kirgan Abdula Ansoriy, Ibrohim Adham va Robiya Adaviya haqidagi hikoyatlar ayni shu mazmundagi hikoyatlar sirasiga kiradi. Ana shu mazmunii yo'nalishdagi hikoyatlar Adibning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham ko'plab uchraydi. Xususan, zikr etilgan asarning muqaddima qismida adib luqma hilliyati haqida so'z ioritar ekan bir so'fiyning sahro dan o'tin terib kelib, uni sotib kun ko'rishi, hovlisidagi yagona tovuqning tuqqan tuxumi yana bir ozuqasi bo'lgani aytiladi. SHu so'fiy kunlardan birida o'tin terib kelayotsa, tovuqi qo'shnining hovlisida donlab iorganini ko'radi va tovuqning tuqqan tuximini makruh deb daryoga uloqtiradi va shu kunda bir umr baliq tanovul qilmasdan o'tadi. CHunki bu so'fiy "Men daryoga otib iorgan tuxumni biror baliq eb qo'ygan bo'lsa, shu baliqni eb qo'ymay", deya xaromdan parhez qiladi. Demak, tasavvuf vakillari haqidagi hikoyalar mumtoz hikoyachilikning alohida ko'rinishi maqomini olib, turli asarlarda o'z ifodasini topdi.

Mumtoz hikoyachilikda royaviy maqsad birlamchi hisoblangani sababidan aksariyat hikoyatlarda dunyovii masalalar xususida so'z boradi. Ayniqsa, sultonlar

haqida, ularning adolati borasida soʻz yoritgan hikoyalarning miqdori anchagina salmoqli. “Gulistoni bit-turkiy” bir darveshning podshoning iltimosiga koʻra, uning oʻlimini tilab duo qilishi va uning savoliga “Sen qanchalik tez olamdan oʻtsang gunohlaring shu erda toʻxtaydi va xalq sendan qutilganiga shukrona qiladi” deyishida ham sultonlar adolatining naqadar muhim aʼkanligiga urfu beradi. YOki Navoiyning Xusay Boyqaro adolatidan soʻz yoritgan “SHoh Foziy va Tilla kampir” hikoyatida ham adolat foyasi ustuvor. Unda aytilishicha, umri poyonlayotgan bir kampir SHoh Foziy xuzuriga arz bilan keladi va sultonning yurishlarida qatnashib halok boʻlgan yolfiz oʻflining xunini talab etadi. Ular qozi xuzuriga boradi. Qozi shariat hukmi boʻyicha, undan ikki guvoh talab qilganida, podshoda insof va adolat boʻlsa, shular guvoʻhlikka oʻtishini aytadi. Qozi kampir aytgan guvohlarni qabulqilgandan soʻng, podsho bir qiyiq bilan oʻz boʻynini boʻrlab, kampirga tutqazadi va bir halta oltinning boʻynini echib, uni kampirning oldiga qoʻyadi va ulardan qaysisini tanlashini soʻraydi. Kampir xaltadagi tilloni olib, Tilla kampir nomi bilan ovoza boʻladi. YOxud Xojaning “Miftoh ul-adl” kitobiga kirgan bir hikoyada bir soatlik adolatning savobi insonlar, xurlar va farishtalarning bir umr qilgan toat-ibodatlaridan ustun aʼkanligi uqtiriladi. Demak, mumtoz hikoyatlarning katta qismi adolatli sultonlar haqida boʻlib, ularda adolat va zulm zid qoʻyiladi.

Mumtoz hikoyachilikning umumfoya yoʻnalishida pandnoma ruhdagi hikoyatlarning benihoya koʻpligi aʼtiborni tortadi. Toʻgʻri, yuqorida tilga olingan hikoyatlar ham didaktiklikdan xoli emas. Har qanday adabiy asar didaktiklik darajasiga ega. Ammo shu didaktiklik muayyan asarda qay darajada akslangani muhimdir. Biz mulohaza yoritmoqda boʻlgan asarlar sof didaktik hikoyalardir. Bunday hikoyatlarda ibrat yoʻnalishi ustuvorlik kasb etadi. Ularda ibrat bularlik bir vaziyat tilga olinadi. Ularning qahramonlarining biri anchayin dono, ikkinchisi buning aksi boʻlishi mumkin. “Guliston”, “Boʻston”, “Miftoh ul-adl” tipidagi kitoblardan oʻrin olgan hikoyalar ana shu belgilari bila mumtoz hikoyachilikning muhim bir yoʻnalishini tashkil qiladi. Pandnoma hikoyalarda saxiylik, toʻgʻrilik, haloldik, kamtarlik, shirinsoʻzlik va boshqa umuminsoniy sifatlar ulufanadi.

Mumtoz hikoyalar mavzu va ʻroyaviy yoʻnalishida hajviy hikoyalarning ham alohida oʻrni bor. Muqimiy, Zavqiy va boshqa maʼrifatparvar shoirlar tomonidan taʼlif etilgan bir qator hikoyalarda real shaxslar portreti chiziladi, ularning kirdikorlari ustidan kulinadi. Bular ham qaysidir maʼnoda ibrat namunasi sifatida namoyon boʻladi.

SHunday qilib, mumtoz hikoyachilikning tadrijiy takomilida mazu yoʻnalishlari bilan ham boshqa epik janrlar ichida ʻuqori mavqe tutib, serqirra adabiyotimizning taraqqiysida munosib oʻrin egallay oldi. Fikrimizning dalili sifatida Xojaning ayrim bir hikoyatlarini koʻrib oʻtaylik. Zero ularning yoʻnalishlari umumturkiy hikoyachilikning bir koʻrinishi sifatini namoyon qiladi.

Xoja hikoyachiligi mumtoz adabiyotimizda alohida mavqe tutadi. Hoja hikoyatlarining mukammallashuvida boshqa vositalar qatori oʻrziaki adabiyotning ham alohida mavqe tutishi taʼkidandi. Fikrni aniqroq davom ettiradigan boʻlsak, Xoja adabiy faoliyatining kamol topishida folklor asarlari, ularning mavzu va ʻroyaviy motivlari, sʻjeti va obrazlari, adabiy uslub va badiiy usullari, til boyligi va badiiy tasvir vositalari asosiy manba vazifasini oʻtagan. Demak, Xoja ijodini oʻrganish orqali, oʻsha davr va undan oldingi davrda yaratilgan xalq oʻrziaki ijodi namunalari bilan ham yaqindan oshno boʻlamiz.

Xojaning «Miftohul-adl» va «Gulzor» asarlari asosini uning hikoyatlari tashkil etadi. Muallifning biror ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-taʼlimiy fikrlarining badiiy ifodasi sifatida keltirilgan hikoyatlari oʻzigacha yaratilgan badiiy boyliklar unumli foydalanishi asosida yaratilgan.

YOzma adabiy yodgorliklardagi ʻrtak-hikoyatlar folklordagi kabi toʻʻridan-toʻʻri, birin-ketin aytib ketilavermaydi, balki yozuvchining biror maqsadni koʻzlagan fikrini yoki oʻrtaga tashlagan konʻepʻiyasini asoslashda asosiy vosita vazifasini oʻtaydi va koʻproq didaktik xarakterda boʻladi.

Hikoyatlar ham ʻrtaklarga xos xususiyatlarga ʻga. Ular ʻrtak janridagi kabi yaratilgan davrlaridagi xalq hayoti, kurashi, orzu-intilishlari, dunyoqarashi va urf-odatlarini aks ʻttirib, axloqiy-taʼlimiy xarakterga ʻga boʻladilar.

Hikoyatlarga xos xususiyatlardan yana biri shundaki, ular bir xalqdan ikkinchi xalqqa o'tib, o'z milliy ruhiga ega bo'lib, o'z milliy an'alariga bo'ysungan holda namoyon bo'ladi.

Tuzilish jihatidan ham hikoyatlar e'rtaklarga o'xshab ketadi. Ular ham kirish, hikoyaning mazmuni va xulosa – muallifning qissadan hissa chiqarishi kabi qismlardan tashkil topadi, lekin e'rtaklardagi uzundan-uzoq boshlama – zachin hikoyatlar uchun xos emas. Ularda faqat «ayturlarkim», «debdurlarkim» yoki «kunlardan bir kun» boshlamalarini keltirish bilan chegaralanadi.

O'zbek xalq e'rtaklari folklor asarlari ichida xayolot va badiiy to'qimalarga boyligi bilan ajralib turadi. Hikoyatlar esa, ko'proq hayotda tez-tez uchrab turadigan hodisa va voqealarni tasvirlaydi. Lekin ularda ham ideal hayot, odil shoh, ideal jamiyat haqidagi xalq orzu-umidlari aks etadi.

Hikoyatlar odatda didaktik xarakterga ega bo'lib, ularda ko'proq hayotdan olingan voqealar tasvir etiladi, real shaxs – zolim shoh, odil vazir, cho'pon, mushtipar kampirlar hikoyat qahramonlaridir. Axloq-odob, xalqparvarlik, vatanparvarlik hikoyatlarning asosiy foyasini tashkil etadi. Bu hikoyatlar ichida tarixiy shaxslar nomi bilan bo'liq bo'lgan hikoyatlar ham ko'p uchraydi.

Xoja asarida keltirilgan hikoyatlarning ko'pchiligi dastlab xalq o'rzaki ijodida yaratilgan bo'lib, keyinchalik yozma adabiyotga o'tgan va har bir adib yoki shoir uni o'z ijodiy maqsadi yo'lida qayta ishlagan. SHunday ekan, Xoja hikoyatlari ham hoh u xalq o'rzaki ijodidan olingan bo'lsin, xoh yozma adabiyotdan, ular Xojaning o'z badiiy ijodi mevasi sifatida o'rganiladi.

«Iskandar va donishmand qariya» haqidagi hikoyat alohida e'tiborga molik: Iskandar zulmatga kirish niyatida ketayotganda, askarlari ichida bironta ham keksa kishi bo'lmasligini bu'roradi. Podshoh askarlarining ichida bir yigitning qari otasi bo'lib, u o'z o'fli bilan ketishni xohlaydi. Otasining xohishini rad etolmagan o'ril uni sandiqqa solib yashirib o'zi bilan olib ketadi.

Iskandar o'z askarlari bilan zulmatga e'tganda u erdan qaytib chiqish muammo bo'lib qoladi. Bu muammoni donishmand otasining ko'rsatmasi bilan haligi yigit hal qiladi.

Folklor ta'sirida yaratilgan bu hikoyatda «Qari bilganini pari bilmas» degan hikmatning mazmuni aks ettirilgan. Qolaversa, har qanday ishda, ayniqsa, mushkul vaziyatlarda hayot tajribasi bo'lgan donishmand qariyalar maslahatiga amal qilish, kenggashish lozim, degan ibratli ʻfoya ham singdirilgan.

Iskandar qandaydir maqsadni ko'zda tutib, zulmatga ketish oldidan: «Hech kishi mening cherikim bilan qari kishi olib kelmasin», - deb buyruq bergan ʻekan, zulmatdan chiqish yo'lini qidirib: «bu cherikda hech bir qari kishi bormu ʻerkan andin so'rasak, shoyad ul qari kishi tajriba bilan bu ishning tadbirini bilʻfay ʻerdi», - dʻeyishga majbur bo'ladi. Faqat shu katta hayot maktabini o'tagan donishmand qariyagina Iskandarning arkoni davlati echa olmagan muammoni hal qiladi: «Qulunlarini yoruʻflikka boʻlab, onalarini minib, qoronʻulikka kirmak kerak. Ul kisroklar qulunlariga intilib, tezda qoronʻulikdan yoruʻflikka yo'l topib chiqadilar», - dʻeydi va natijada Iskandar qo'shinni falokatdan saqlab qoladi.

Hikoyatda hatto shohning ham (garchi u qator amir-umarolardan iborat maslahatchilarga ʻega bo'lsa ham) vaqti kelganda qariyalarning maslahati va madadiga muhtoj bo'lib qolishi haqidagi ibratli fikr mujassamlashgan. Bu hikoya «Agar zamonaning Iskandari bo'lsang ham, omonlik yo'lidan ustodsiz borolmaysan» maqolining mazmunini o'zida mujassamlashtirgan. Bundan tashqari hikoyatda ota-bolaning, ona-bolaning (qulun va kisroklar) bir-biriga bo'lgan mehru muhabbatlari ham o'z ifodasini topgan.

Xojaning Iskandar nomi bilan boʻliq ushbu hikoyasi xalq orasida keng tarqalgan «Zolim podshoh»³ ʻertagi bilan nihoyatda uʻyfundir.

Hikoya qilinishicha, bir zolim shoh bo'lib, qirq besh yoshdan oshgan hamma kishilarning boshi kesilsin, chunki ular qarigach, aqli past bo'lib qoladi, debdi. Bir kun podshoh 30 yoshgacha bo'lgan askarlarini to'plab, safarga o'tlanibdi va yo'lda katta suv bo'yidagi daraxt soyasida dam olib o'tirishibdi. SHohning ko'zi suv ostidagi ikki gavhar toshga tushib, ularni olib chiqish uchun askarlarini birin-ketin suvga sho'nfita boshlabdi. Ulardan birortasi ham qaytib chiqmabdi. Gal bir yigitga kʻelibdi. U otasiga maslahat solibdi. U shohdan yashirib, sakson yashar otasini

³ Ўзбек халқ эртаклари. Ўздавнашр., Т., 1963, 88-бет.

saqlab qolgan va birga sandiqqa solib olib chiqqan edi. CHol o'ylab turib, daryo tepasida daraxt bor bo'lsa, gavhar daraxt tepasida ekanligini, shuning uchun avval daraxtga chiqib gavharlarni olib, so'ngra suvga tushib keltirib berishini aytadi va o'rlini o'limdan saqlaydi.

Bu ertak xalqning zolim podsholarga nafratini ifodalab, qariyaning donishmandligini tasvirlashi bilan Xoja hikoyasiga o'xshab ketadi.

Xalq orzaki ijodi an'analari asosida yaratilgan hikoyatlardan yana biri chumchuq va uning nasihatlar haqidadir. Hikoyada tasvirlanishicha, bir kishi bir chumchuqni qafasda saqlar ekan. Bir kun chumchuq tilga kirib: Meni qafasdan chiqarib yuborsang, uch foydali pand aytaman, deydi. U kishi bo'lsa, pandlarni aytgandan so'ng ozod qilishini bildirdi. CHumchuq aytadi: «avval ulkim, har nimarsa qo'lingdan chiqsa, qayfu emagil. Va yana mahol so'zni aslo qabul qilmaril. Endi mani yiborfil, yana birin ayturman», - deydi va qafasdan bo'shalgach, «maning qornimda yigirma misqol la'l bor edi. Ul la'l qo'lingdan chiqdi», deydi. CHumchuq egasining juda xafa bo'lganini ko'rib, o'z pandining birinchisini yodga soladi va «o'zim yigirma misqol ermasmanku, yigirma misqol qornimga na turluk sifar», - deydi va uchinchi pand o'rniga: «bu yafochning tubida bir ko'zacha tanga bor turur, oni olib xarj qilfil», - deb uchib ketadi.

Bir chumchuqni ozod etgan kishi buning avaziga uch hikmatli so'z – nasihatga ega bo'ldi. SHuning uchun ham hikoyada bir tomondan erkinlik foyasi ilgari surilsa, ikkinchi tomondan, hikoyaga uch nasihat ma'nosi singdirilgan.

CHumchuqning ozod etilishi – uni ozodlikka olib chiqqan bo'lsa, chumchuq egasi qush pandlari orqasida ham ma'naviy, ham moddiy boylikka ega bo'ladi. Bunda chumchuq so'zlari xarakterlidir: «Ey kishi, mani bu qafasga solib saqlabsan. Saqlafondan sanga hech bir foyda yo'qdur. Agar mani ozod qilsang, sanga uch pand berayki, andin sanga ko'p foydalar bo'lray».

Hikoyat xalqning «o'tgan ishga achinma», «Dema mahol, chekma ma'lol», «Keyingi pushaymon, o'zingga dushman», «YAxshilik qilsang, yaxshilik ko'rasan» (chumchuqni ozod qilgani va avaziga bir ko'za tanga olishi) kabi maqol va nasihatlar bilan chambarchas borliqdir. Hikoya kompozitsiyasi xalq ertaklari

uslubida tuzilgan bo'lib, chumchuq ikki nasihatini aytib tugatgach, əgasiga o'z nasihatlarini ta'sirini sinab ko'rish uchun, nasihatlardan qanday xulosa chiqarganini bilish uchun muallif chumchuqni ikki panddan keyin bo'shlatib, chumchuq əgasi sinovdan o'tgandan so'ng («O'tgan ishga o'ksinma» maqolini amalga oshirtirib), oxirgi uchinchi pand ma'nosini ifodalaydigan bir ko'zacha tanga voqeasini keltiradi.

Bu hikoya muallifning xalq o'fzaki ijodi, uning maqol va matallaridan qay darajada ustalik bilan, o'z o'rnida va san'atkorona foydalanganligini ko'rsatadi.

Xoja xalq ijodining xoh u, xoh bu tomonidan (maqollari yoki sjojeti, uslubi) foydalanmasin, ularga ijodiy yondashadi va o'z munosabatini bildirib ketadi.

IQoridagi hikoyatni yakunlar əkan, Xoja quyidagi she'riy parchani keltirib, qissadan hissa chiqaradi:

Ikki ish qo'ymas bani odamda dahr ichra majol,
Bir – taassub o'tgan ishqa, bir do'ri amri mahol.
Odam ərsang, ko'p taassub əma o'tgan ish uchun,
Demagil so'zni maholu, chekmagil andin malol.

Qisqasi, Xoja hikoyatlari o'zbek hikoyachiligi janr speçifikasi va foyaviy yo'nalishlarini belgilashda alohida mavqega əga. To'fri, bular nasriy hikoyalar. Xojagacha Alisher Navoiy, keyinchalik, Huvaydo, So'fi Olloyor va boshqa adiblar yaratgan hikoyalar ham mumtoz hikoyachilikning yo'nalishlarini belgilab berishi barobarida, janr speçifikasini ham ko'rsatib beradi.

3.2. O'zbek hikoyatlari poetikasining ayrim masalalari

O'zbek mumtoz hikoyatchiligining ming yillik tarixiga nazar tashlansa, she'riy va nasriy hikoyalarning aksariyati badiiy jihatdan talablar darajasida bo'lganini sezish qiyin emas. Negaki, o'tmishda yaratilgan mumtoz hikoyalar o'z o'quvchisini topishi va unga badiiy-estetik ta'sir etishi, ayni cho'lda, tarbiyaviy maqsadlarni ham e'tiborda tutishi talab etilgan. Biz oldingi boblarda bir qator hikoyatlarni tahlilga tortdik. Bu hikoyalarning badiiy saviyasi har xil e'kanligi, ayrimlari badiiy jihatdan pishiq, ba'zilar esa mualliflarning asosan, foya e'tiborida bo'lgani tufayli badiiylik u qadar pishiq bo'lmaganini ta'kidlab o'tdik. Mumtoz hikoyatchilik poetikasining ayrim qirralar uchun, bizningcha, Alisher Navoiyning dostonlari tarkibiga kirgan bir qator hikoyalari oyna bo'larlik darajasida e'kanini ta'kidlashni istar edik. SHu sababdan Navoiy hikoyatlari poetikasining ayrim qirralarini ko'rsatish va tahlilga tortish orqali umumo'zbek mumtoz hikoyachiligi poetikasi borasida xulosa chiqarish mumkin deb hisoblaymiz.

Alisher Navoiyning ijodi, chukur foyaviyligi, mazmunan boyligi, janrlarning xilma-xilligi, badiiylikning nihoyatda roksakligi bilan adabiyotimiz tarixida muhim bir bosqichni tashkil kiladi. U eng uluf badiiy so'z san'atkorlaridandir. Navoiydek yirik san'atkor ijodidagi badiiy mahorat juda katta masala bo'lib, shoirning asarlari, dostonlari rozasidan alohida-alohida ilmiy-tekshirish ishlarini talab qiladi.

Biz Alisher Navoiy hikoyatlarida badiiy obraz yaratish mahorati, srojet va kompoziciya masalalari ustida qiskacha tuxtab, o'z mulohazalarimizni bayon etishni maksad kilib ko'ydik.

Har bir adabiy janrning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilgan Alisher Navoiy hikoya jairining ham vokelikni aks ettirishdagi imkoniyatlarini hisobga olib, ham foyaviy, ham badiiy jihatdan roksak hikoyatlar yaratdi. Har bir hikoyat o'zining mustakil sjojet chiziriga, obrazlariga ega. Ularda sjojetning barcha komponentlari bor. SHoir hikoyatlarida hikoya janriga xos ko'pgina xususiyatlar mavjud. SHuning bilan birga, har bir hikoyat o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir.

Hikoya janriga xos xususiyatlardan eng muximi qisqalik va lakoniklikdir. A. P. CHexov ta'biri bilan aytganda, qisqalik iqtidorning singlisidir. A. Tolstoy ham hikoya janrining o'ziga xos xususiyati haqida: «hikoya san'atning kiyin shaklidir... kichik shakl sizni katta mundarijadan qutqazmaydi... SHoir sonet yozgandagidek qisqa iboralar ishlata biluvchi bo'lishingiz kerak... hikoya vergul va «lekin»dan qurilmofi, tugallangan asar bo'lmogi lozim»¹,—deydi. Navoiy ham fikrni ixcham, tushunarli shaklda ifoda qilish uni katta mazmundan uzoqlashmasligini ta'kidlaydi. Bu haqda shoir «Sab'ai sayyor» dostonida shunday yozadi:

Har ne bor dostonga soldi sado,
Munda bir bayt birla tobqay ado.
Mujmal oning so'zin qilib takmil,
O'z hadisimga bergamen tafsil³⁵.

Ko'rinadiki, yirik so'z san'atkorlarining fikrni ixcham shaklda ifodalash, qisqalik haqidagi qarashlari bir-biriga yaqin. Bu yaqinlik ularning adabiy janrlarni baholaishda ob'ektiv yondoshishlari natijasidir.

Har bir asarning chuqur foyaviy, badiiy go'zalligi, asosan, mazkur asarda inson obrazining qay darajada tasvirlanishiga borliq.

Navoiy hikoyatlariga nazar tashlar ekanmiz, ularda kishilarning rang-barang obrazlariga duch kelamiz. SHoir davr talabidai kelib chiqib, o'tmish mumtoz adabiy ae'anasiga, xalq o'fzaki ijodi samaralariga suyangan holda turli xil kishilarning ijobiy va salbiy obrazlarini yaratdi. Navoiy hikoyatlarida o'sha davr hayotida ezilgan mehnatkash xalk vakillarining, odil shoh va shahzodalarning ijobiy obrazlarini badiiy maxorat bilan tasvirladi. SHoir mehnatkash tabaqa

³⁵ А. Навоий, Хамса, 484-бет.

vakillarining obrazlarini gavdalantirishga katta ʻtibor beradi. SHuning uchun ham hikoyalardagi ijobiy obrazlarning koʻpchiligi xalq vakillaridir. Masalan, «SHohi Roziy» hikoyatidagi kambaral va ʻzilgan kampir obrazi, «Xotam Toiy» hikoyatidagi oʻtin terib kun koʻruvchi chol obrazi, «Bahromgoʻr» hikoyatidagi qari dexkon obrazi, «SHoh Juna va Masʻud» hikoyatidagi shohga nok sovʻga keltirgan dehqon va qari mehmon obrazlari hamda «Uch kabutar» hikoyatidagi kabutar ana shunday obrazlardandir. SHoirning butun simpatiyasi ham ana shu obrazlarni toʻlarok; tasvirlashga qaratilgan. Hikoyatlardagi obrazlar hayotiy ʻpizodlarda ixcham shaklda ishonarli qilib tasvirlangan. SHoir hikoyatlarida Juna, Masʻud («SHoh Juna va Masʻul hikoyatidan»), Navdar va Nuʻmon, Mahmud va Mayobud («SHoh Masʻud» hikoyatidan) kabi kator shoh va shahzodalarning ijobiy obrazlari yaratilgan boʻlib, ularning koʻpchiligi ideal xarakterga ʻga. Bu obrazlarning birortasiga butunlay oʻxshash xarakterdagi kishilarni oʻsha davr sharoitida koʻrish mumkin ʻmas. SHoir bunday obrazlarni yaratish bilan podshoh kandy boʻlishi kerakligi xakidagi oʻz orzularini bayon ʻtadi. SHuning bilan birga zolim shoh va shahzodalarni ulardan oʻrnak olishga, adolatli boʻlishga chaqiradi.

Navoiy hikoyatlarida qator salbiy obrazlar portreti ham chizilgan: Mallu, Jaypur, Jobir, Zayd Zahhoblar. Hikoyatlardagi bu salbiy obrazlar oʻsha davrdagi zolim shoh, shahzodalarning umumlashgan obrazlaridir. Ularda oʻsha zamon hukmdorlariga xos xarakterli xususiyatlar: zulm-zoʻrlik, munofiklik, behuda QON toʻkishlik, xoinlik jamlangan. Umuman shoir shikoyatlaridagi obrazlarning hammasi ham, ijobiy yoki salbiy boʻlishidan qatʻi nazar, maʻlum maʻnoda umumlashgan obrazlardir. Ayni vaqtda, hikoyatlardagi har bir obraz oʻzi ning individual xislatlari bilan boshqalardan keskin ajralib turadi. Bu xislatlar ularning xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, dunyoqarashlari, tashqi koʻrinishlari va nutqida koʻzga tashlanadi.

Hikoyaning oʻziga xos yana bir xususiyati obraz yaratish tamoyillarida koʻrinadi. Hikoyada obrazlar soni nihoyatda kam boʻlishi va ayni zamonda ularning har biri oʻzining muhim xarakterli belgilari bilan ajralib turishi

kerak.

Navoiy hikoyatlarida ham hikoyaning bunday o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinganligini ko'ramiz. Ayniqsa, shoirning birgina epizodik voqea asosiga qurilgan hikoyatlarida obrazlar soni nixoyatda oz. Lekin hikoyatning badiiy qimmati undagi obrazlar soniga qapab belgilanmaydi. Ma'lumki, har qanday asarning badiiy qimmati yozuvchining xarakter yaratishdagi mahoratiga bog'liq. Agar yozuvchining diqqat markazida xarakter yaratish tursa va asardagi voqealar zaminida undagi xarakterlar ochib berilsa, asarning badiiy qimmati oshadi. Umuman, yozuvchining diqqat markazi asarda voqealargagina ajratilgan bo'lmay, xarakter yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Xarakter yaratishning o'ziga xos tomonlariga kura hikoyatlar bir necha turga bo'linadi. Ularning ba'zilarida xarakterning rivoji ko'rsatilsa, ba'zilarida kursatilmaydi, bir xil hikoyalarda obrazning bir lahzalik holati aks ettiriladi. SHu nuqtan nazardan Navoiy hikoyatlariga nazar tashlaylik. SHoirning ko'pchilik hikoyatlari obrazning bir lahzalik holatini ko'rsatish asosiga qurilgan. Bunday hikoyatlarda xarakterlar rivoji ko'rsatilmaydi. Ularda keltirilgan obrazlar, hikoyatlarning boshlanishida qanday xarakterda bo'lsa, oxirida ham shundayligicha qoladi. SHoirning hikoyatlaridagi obrazlar o'quvchining asida qo'ladigan darajada jonli va real chikdan. Bunga sabab, Navoiyning obraz yaratishda turli badiiy vositalardan ustalik bilan foydalama bilganligidadir. Portret, peyzaj, obrazlarni turli dramatik vaziyatlarda tasvirlash, psixologizm kabilar shunday vositalardandir. Portret chizish xarakter yaratishning yordamchi vositalaridan biridir. Portret obraz, qahramoi xarakteridagi eng muhim etakchi xislatni yanada ta'kidlashga va ayni chor'da qahramoi qiyofasini aniq va jonli qilishga yordam beradi. Navoiy hikoya janri imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularda kishilar portretini mukammal chizib bermaydi. SHoir hikoyatlarida bironta ham obrazning to'liq portreta chizilmagan. SHoirning badiiy mahorati shundaki, u yoki bu obraz portretiga xos ba'zi asosiy shtrixlarni, belgilarni keltirish bilan ularning to'liq qiyofasini, portretini o'quvchi ko'z oldida gavdalantira olgan. SHuning bilan

birga, hikoyatlardagi obrazlarning portretlari ularning ruhi-ruhoniyati, ichki dunyosi bilan mos ravishda berilgan. Masalan, «Xotam Toiy» hikoyatida o'tinchi cholning portreti to'liq chizilmagan. Hikoyatdagi;

Jismi ush aylabon ul rok nigun,
Tirkabon ul uyga asodin sutun.
Har kadam olguncha etib muddate,
Har nafas urguncha o'tib fursate...³⁶

kishining yorqin qiyofasi, ruhiy holati, ichki kechinmalari aniq va jonli ko'rinadi. YOki Jobir obrazini («Mehr va Suhayl») olaylik. Jobirniig portreti to'la chizilmagan. Lekin ikki bayt orqali Jobirniig tashqi ko'rinishi yaxshi chizib berilgan:

Ham tanumandu ham shujou daler.
Ul sifatkim jazira ichraki sher.

Bahr aro ofati nechukki nahang,

Besha ichra nechukki sheru palang³⁷.

Birinchi baytda Jobirning kuchli akanligini ko'rsatish uchun sherga o'xshatiladi. Ikkinchi baytda birinchi baytdagi fikr rivojlantirilib, Jobir ofat keltiruvchi nahangga o'xshatiladi. Bu bilan uning salbiy xususiyatlari ochiladi. Natijada ko'z oldimizda Jobirning bahaybat salbiy obrazi gavdalanadi. Aytish kerakki, Navoiy hikoyatlaridagi ba'zi obrazlarning portretlari orqali ularni bir-birlaridan fark qilish qiyin. CHunki shoir hikoyatlaridagi portretlar ko'p vaqt an'anaviy xarakterga egadir. Ulardagi xo- tin-qizlar portretini chizishda ishlatilgan anchagina iboralar («qaddi sarv», «rozi mehr») erkak personajlarning portretini chizishda ham qo'llanadi. Misol uchun «Mehr va Suhayl» hikoyatidagi Mehr va Suhayl portretlarini keltiramiz.

Mehr portreti:
Taqikim nahli sarfarozi kelib,
Husn boshda sarvi noz kelib.

³⁶ Ўша асар, 70-бет.

³⁷ Ўша асар, 563-бет.

IOziga mehr bandau oti Mehr,
Uyrulub mehridek boshiga sipehr³⁸ -

Suhayl portreti:

IOzidin bargi gul hijil ʻrdi,
Qaddidin sarv munfail ʻrdi.

Hunar avji sori kelib anga mayl,
IOzi andoqki mehr, oti Suhayl³⁹.

Demak, Navoiy hikoyatlarida portretlar to'liq berilmasa ham, ularni tanib olish qiyin bo'lmaydi. SHoir bir yoki ikki detal bilan muayyan qahramonning portretini nihoyatda jonli tarzda tasvirlab bera oladi. SHoirning qaysi hikoyalarini ko'zdan kechirilmasin, ularda ishlatilgan tashbehlar, ta'zodlar shoir mahoratini ko'rsatuvchi unsur darajasiga ko'tariladi va asarning o'qimishligini kuchaytiradi. Bu badiiy san'atlardan tashqari Navoiy hikoyalarida ma'naviy va dafziy man'atlarning ham o'nlab namunalarini kuzatamiz. Bu esa daho san'atkorning hikoyalarini ham badiiy san'atlar bilan bezab, ularning o'qimishlilikini kuchaytirganini dalillaydi.

YAna shoirning "Mehr va Suhayl" hikoyatiga qaytsak, unda bir-biriga ulanib ketgan voqealar tizmasi borligini kuzatamiz. Bu voqealar tizmasi hikoyatning sjojet chizirini tashkil qiladi. Voqealar ichida Mehr bilan Suhayl o'rtasidagi sevgi voqeasi asosiy, qolganlari esa yordamchi voqealar bo'lib, asosiy voqeani oydinlashtirishda, to'laroq ochishga yordam beradi. SHuning bilan birga, har bir epizodik voqea asosiy voqeaning bir bo'lagi vazifasini o'taydi. Bu hikoyatning sjojet qurilishi qo'yidagicha: shoir hikoyatning boshlanishida o'quvchini ijobiy va salbiy obrazlar xarakteristikasi bilan tanishtirgach, Mehrning dengiz sayohatiga chikib, asirga tushish voqearini keltiradi. Bu voqea hikoyatdagi asosiy voqeaning boshlanishi, tuguni hisoblanadi. ʻndi hikoyatdagi Mehr tahdiri bilan bo'liq bo'lgan voqea rivojlanib borgan sari yangi-yangi konfliktlar paydo bo'la boradi. Suhayl bilan Jobir o'rtasida qattiq kurash ketib, Jobir hiyla-nayrang

³⁸ Уша асар, 564-бет.

³⁹ Уша асар, 565-бет.

ishlatib, Suhaylni engadi. Uni zindonga tashlaydi. Jobirga qarshi ikki shoh — Mehrniig otasi Adan shohi Navdar bilan Suhaylning otasi Yaman shohi Nu'mon kurashadilar. Lekin ulap - ikki shoh ham maglubiyatga uchrab, Jobirga asir bo'ladilar. Hikoyatdagi voqea rivojlana borib butun ijobiy kuchlar maflubiyatga uchraydilar. Lekin bu bilan hikoyatdagi murakkab konflikt hal bo'lmaydi. Voqea shu erga kelganda Mehrning Suhaylni ozod qilish epizodi keltiriladi. Endi voqea kulminacion nuqtaga kutariladi. Suhayl bilan Jobir ikkinchi marta qattik to'knashadi. Bu kurashda yo zulm, zo'rlik falaba qilishi yoki sof sevgi-sadokat, adolat tantana qilishi kerak. Hikoyatdagi ana shu vaziyat uning kulminacion nuqtasidir. Voqea kulminacion nuqtaga kutarilgach, tez echiladi. Suhayl bilan Jobir urtasidagi kurashda Jobir engiladi. Asir bo'lgan shohlar zindondan ozod qilinadi. Ota-bolalar diydor ko'rishadilar. Hakiqat, adolat galaba qozonadi. Ikki sevishgan murod-maqsadiga erishadi.

Bunday sjojet xarakteri hikoyatning qiziqarli chiqishini ta'minlagai. SHoirniig sjojet yaratishdagi badiiy mahorati shunda ko'rinadiki, u ketma-ket konfliktlar keltirib chiqarib hikoyatning oxiriga qadar uzluksiz hayajon bilan o'qilishini ta'minlagan.

Ko'rinadiki, «Mehr va Suhayl» hikoyatida voqealar mantiqi birinchi o'rinda turadi. SHoir Mehr va Suhayl sarguzashtini ochib berish uchun ketma-ket voqea va hodisalar tasvirini keltiradi. Lekin hamma hikoyatlarda ham shu xarakterda emas. SHoirning har bir hikoyati o'ziga xos sjojet qurilishiga ega. «SHoh Juna va Mas'ud» hikoyatida voqealar mantiqi emas, xarakterlar mantifi birinchi o'rinda turadi.

Boqea va hodisalar SHoh Juna va zolim Jaypur xarakterini bo'rttirib ochishda guruhlashgan holda keltiriladi. Hikoyatning boshlanishida undagi asosiy obraz shoh Juna obraziga xarakteristika berilib, uning adolatli va saxiyligini tasvirlash uchun qator epizodik voqea va hodisalar keltiradi. Masalan, shohga nok sovra qilgan dehqon voqeasi shohning adolatli saxiy ekanligini bo'rttirib ko'rsatishga yordam bersa-da, asosiy voqeaning zarur

bosqichi hisoblanmaydi. SHoir o'quvchini ijobiy qahramonlar bilan tanishtirib bo'lgach, salbiy obrazlar Jaypur va uning noibi Mallu bilan tanishtiradi. SHundan keyingina hikoyatning sjojet chizifida asos hisoblangan adolat bilan zulm o'rtasidagi tuqnashuv tas- virlanadi. Adolat bilan zulm o'rtasidagi konflikt shiddat bilan rivojlanib kul'mination nuqtaga ko'tariladi. Undan keyin shoir Malluning qizi obrazi bilan bo'liq bo'lgan voqeani keltiradi. Bu voqea, bnr tomondan, Malluning munofikligi, rahm-shafqatsizligini ochib tashlasa, ikkinchi tomondan, sof sevgi va sadoqatning kuchini ko'rsatadi. Mas'udning zindondai qutilishi bilan adolat va zulm o'rtasidagi kurash tugamaydi. Mas'udning tasodifan shoh Junani topishi, zolim Mallu va Jaypurnnng yo'q qilinishi epizodi bilan xikoyatdagi murakkab konfliktlar hal bo'ladi.

SHoirning ayrim hikoyatlarinilg sjojeti bevosita undagi asosiy obraz bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bunday hikoyalarda shoir asosiy diqqat- a'tiborini hikoyatdagi obrazning xarakterini ifodalashga, o'quvchini u bilan tanishtirishga qaratadi. «Bahromgo'r», «Zayd Zahhob» «Juna va Mas'ud», «Mehr va Suhayl» kabi hikoyatlarning sjojetiga o'quvchi ulardagi asosiy obrazlarning nomi, kasbi-kori, tashqi kiyofasi bilan tanishish orqali kirib boradi. Bir misol keltiramiz. «Zayd Zahhob» hikoyati shunday boshlanadi:

Iztirob aylamay bayoninda,

Dedi: Jamshidning zamoninda.

Rum aro zargare edi mohir,

Ishi elga quyosh kabi zohir.

Dam anga subh, ko'ra jirmi sipehr,

Har bir oltun qo'licha davrai mehr.

Rum shohi qoshida joh anga,

Jurmi xo'rdida korgoh anga.

SHundan ham ko'rinib turibdiki, shoir muayyan qahramon tasvirida uni voqealar silsilasiga to'la olib kirib gavdalandirsa, ayrimlarida hali voqealar

to'zoniga olib kirmay turib ularning xarakter qirralari, kasbi korlari bilan o'quvchini tanishtirib boradi. Mazkur bo'lgan hikoyatda ana shunday holat kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy xikoyatlar badiiy mukammalligi bilan butun o'zbek mumtoz hikoyachiligi poetikasini o'zida namoyon etdi va ungacha hamda undan keyingi mumtoz hikoyatlarning badiiy xususiyatlarini aniqlashda manba vazifasini o'tay oldi.

XULOSA

Mumtoz hikoyachilik juda uzoq tarixiy yo'llarni bosib o'tdi va bu jarayonlarda takomil topib bordi. Bugungi mezonlar bilan o'lchanadigan hikoyalar bilan mumtoz hikoyalarni bir andozaga solib baholab bo'lmaydi. Dastlabki hikoyalar keyingi va hozirgi hikoyalardan ko'tarilgan mavzu va ularning talqin qilinish usullarigacha-da farq qilib, mukammallashib kelgan ekan, bular yozasidan quyidagi xulosalarni taqdim etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Birinchi galda hikoya janrining speuifik xususiyatlari, shu janr tabiatini belgilab beruvchi unsurlar mavjudligini diqqat markazida tutmoq darkor. Hikoya badiiy janr sifatida tadrijiy takomil topib borar ekan, boshqa epik janrlar doirasida ustuvor ahamiyatga molik bo'lishi uchun tubandagi to'rt xususiyatni o'zida mujassam etmo'i darkor ekan:

- a) keltirilgan har bir hikoya mustaqil asar maqomiga erishishi;
- b) epik janrlar doirasida qaror topgan an'analar ta'sirida takomil yo'llarini bosib o'tgan bo'lishi;
- v) har bir hikoyada qahramonlar timsoli va xarakteri shakllanganligi, asarda uning markaziy o'rinni tutishi;
- g) har bir hikoya yaxlit asar sifatida alohida poetikaga ega bo'lishi darkor.

Agar ana shu belgilar mazkur kichik janrda to'liq namoyon bo'lsa, uning badiiy va ijtimoiy vazifasi to'kis ruzaga keladi. Qolaversa, hikoyaning asosiy xususiyatlaridan biri boy va rang-barang voqealar oqimidan eng asosiy momentlarning tanlab olinishi bilan hayot oqimidan rolib olingan kichik lavha amsligi ham muhim bir to'xtam bo'la oladi.

2. Mumtoz hikoyachilik ikki shaklda – she'riy va nasriy shakllarda yozilganligi, keyinroq esa, aralash shakllar ham paydo bo'lganini ham unitib bo'lmaydi. SHakl mumtoz hikoyachilikning belgilovchi sifatiga aylanmagan, balki hayot voqeligidan biror lavhani uzib olib, uni o'quvchiga etkazib berishning eng qulay yo'lini izlash vositasi bo'lgan deyish o'rinli bo'ladi. Bir qator adiblarning hikoyatlari she'riy – masnaviy shakllarda bular akan, buni adibning ta'bi sifatida baholash darkor. Qolaversa, masnaviy shakl voqelikni badiiy bayonlashda qulay usul bo'lganligi ham a'tirof etilgan. SHE'riy matnlarning yana bir ahamiyatli tomoni shu bo'lganki, ularda badiiy tasvir usullarini qo'llash nasrga qaraganda ancha keng imkoniyat yaratadi. Nasr esa badiiy tasvir usullarini istifoda etishni chegaralab qo'yadi. SHunga ko'ra, hikoyatlar masnaviyda ko'p yozilgan va bu hikoyatlar nasrda bitilgan hikoyatlardan ta'sirchanligi bilan ajralib turgan.

3. Har qanday hikoya, u romantik-xayoliy bo'ladimi yoxud hayotiy-realistik bo'ladimi, inson hayoti, turmush tarzi bilan borliq bo'ladi, inson xayotining ma'lum bir lavhasini aks ettiradi. SHunga ko'ra, mutaxassislar tomonidan hikoyani real hayot voqealaridan “uzib olingan” kichik bir lavha deb baholanadi. Bizningcha, bular u qadar to'fri bo'lmasa-da, hikoyatlarnin mazmuniy yo'nalishlari turli-tumanligini nazarda tutish dozim. Hikoyatlarni ko'zdan kechirish shundan dalolat beradiki, ularda tayyor voqelik, tayyor qahramonlar

tasvirlangani kuzatiladi. Va eng muhimi, bularda tarbiyaviy maqsad birlamchi o'ringa chiqadi. SHuning uchun o'tmish hikoyalari bugungi hikoyachilikka qaragandi kichik hajmda bo'lgan.

4. Mumtoz hikoyatlar ko'proq romantik tamoyillar, qisman esa realistik tamoyillar asosida shakllanib borgan va biz tahlillar jarayonida aytib o'tgan holatlarga kelgan. Bulardagi romantiklik va realizm ularning mazmuniy yo'nalishlarining ham muayyan tizimlar doirasida barqaror bo'lishini ta'min etgan. Eng avvalgi hikoyatlarda insonning din va boshqa tuhoni tasavvurlar bilan bo'liq mavzular galareyasi etakchilik qilgan bo'lsa, sal o'tib, bunday hikoyatlar safiga hayot bilan bo'liq hodisalarni akslantirgan hikoyatlar kelib qo'shilgan. SHuning uchun mumtoz hikoyatlarning mavzu yo'nalishlarini quyidagicha tizimlash o'rinli bo'ladi:

- a) diniy-ruhoniy yo'nalishdagi mumtoz hikoyalar;
- v) diniy-falsafiy, ya'ni tasavvufiy yo'nalishlardagi mumtoz hikoyalar;
- d) pandnoma (didaktik) yo'nalishlardagi mumtoz hikoyalar;
- e) real-hayotiy mavzulardan, kishilarning turmush tarzlarida kelib chiqadigan masala va xulosalardan bahs etuvchi mumtoz hikoyalar;
- f) hajviy yo'nalishlardagi mumtoz hikoyalar.

5. Mumtoz hikoyachilik uzoq takomil yo'lini bosib o'tib bugungi hikoyachilikning ta'mal toshini qo'yib bergan ekan, mumtoz yozma hikoyachilikka asos bo'lgan manbalar ham bisyor ekanini unutib bo'lmaydi. Mumtoz hikoyachilikning shakllanishi va takomilida, xalq orzaki ijodida paydo bo'lgan ertak, afsona, rivoyat, asotir, latifa, hatto maqol, matal, topishmoq va masallarning ham alohida o'rni bor. Mumtoz adabiyotda paydo bo'lgan qaysi hikoyani olib ko'rmaylik, ularda folklorning izlari ko'zga tashlanadi. Ayrim bir hikoyatlarda esa folklorda mavjud bo'lgan sjojetlar ko'chib o'tib, muayyan adib tomonidan sayqallangan.

6. Mumtoz poeziya va nasrda paydo bo'lgan juda ko'p miqdordagi o'zbek hikoyalarining manshaalari ham anchagina. Birinchi galda, mumtoz hikoyalarga asos bo'lgan manba Qur'oni karim va hadisi shariflar sanaladi. Bu muqaddas

manbalar paydo bo'lgan hikoyalarning ruhoniyl haqiqat bilan bo'rlanishini ta'minlagan. Ulardagi ibrat mazmuni ayni shu manbalarda aytilgan purhikmat masalalar asosida shakllangan. Ayniqsa, diniy-ruhoniyl va so'fiyona mazmundagi hikoyatlarning paydo bo'lishida ana shu manbalarning ta'siri yaqqol sezilib turadi.

SHular bilan bir qatorda, zaminimizda nash'u namo topgan aziz avliyolar haqida bitilgan manoqiblar, aytilgan rivoyatlar ham mumtoz adabiyotimizdagi shunday mazmunni beruvchi asarlarda o'zining ifodasini topgan.

7. Adabiy ta'sir masalasi ham mumtoz hikoyachilikning paydo bo'lish va takomil etishida alohida rol o'ynagan. SHarq adabiyotida paydo bo'lgan bir qator hikoyatlarning tipologik tahlili shuni ko'rsatadiki, arab, fors-tojik va turkiyl adabiyotlarning o'q ildizlari bir-biri bilan tutashib ketgan. SHuning natijasida arab adabiyotida uchragan bir hikoya fors-tojik adabiyotida, fors-tojik adabiyotida uchragani arab yoki turkiyl yoxud hind adabiyotida uchraydi. Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, SHarq xalqlari adabiyoti doimiy ravishda bir-biri bilan adabiy aloqada bo'lib kelgan va bir adabiyot ikkinchi bir adabiyotning røksalib takomil topishiga o'z xissasini qo'shgan. Mumtoz hikoyachiligining tadrijiyl yo'lida bunday manzara ko'p va xo'b uchraydi.

8. Mumtoz hikoyalarning eng muhim vazifasi muayyan røyani tarfiib qilishdan iborat bo'dgan. Natijada, she'riyl hikoyalarda ham, nasriyl hikoyalarda ham mavzu va røya oldingi rejaga ko'tarilib, badiiylilik darajasi ikkinchi rejaga tushib qolgan. Biroq bu muhrni barcha hikoyatlarga ham tatbiq etib bo'lmaydi. Adabiyotimiz tarixida shunday hikoyatlar ham uchraydiki, ular mazmun va shaklning o'zaro mutanosibligining go'zal namunalari sifatida et'ibor topib kelmovda.

Xullas, uzoq tarxga ega bo'lgan o'zbek adabiyotida mumtoz hikoyachilikning alohida o'rni mavjud va bu janr asrlar to'fonida o'zining obro' va mavqeini yo'qotmay yashab keldi va serqirra adabiyotimizning uzviyl qismi sifatida komil insonlar ma'naviyatini røksaltirish ishiga beminnat xizmat etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Adabiyotga ə'tibor – ma'naviyatga, kelajakka ə'tibor. T.: "O'zbekiston", 2009.
2. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.: "O'zbekiston", 2011. 9-jild.
3. Karimov I. A. IOksak ma'naviyat–engilmas kuch. T.: "O'zbekiston", 2008.
4. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. II kitob. T.: "O'qituvchi". 1967.-383 b.
5. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). T.: "Fan", 2009.
6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlari. II, T.: "Ma'naviyat", 2000.-206 b.
7. Ayniy S. Namunai adabiyoti tojik. Moskva. CHopxonai nashriyoti markazi xalqi ittihodi jamohiri sho'raviyi susyolist.1926.-626 s.
8. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 7-tom, T.: "Fan", 1989.
9. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 8-tom, T.: "Fan", 1990.
10. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 9-tom, T.: "Fan", 1992.
11. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 10-tom, T.: "Fan", 1994.
12. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 11-tom, T.: "Fan", 1995.
13. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 15-tom, T.: "Fan", 1997.
14. Bartol'd V. V. Sochineniya, V. tom, Moskva, "Nauka", 1968.-757 s.
15. Bertel's E. Э. Persidskaya literatura Sredney Azii.-Sovetskoe vostokovedenie. Tom. V, T.-L.,-1959.-289 s.
16. Berdaq IOsuf. Mumtoz adabiy asarlar lufati. 2010.
17. Boboeva T. SHe'r ilmi ta'limi. T.: "O'qituvchi", 1996.
18. Boboyorov O', Xolsaidov F. Adabiyot. Akademik liuey va kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma. T.: 2006.
19. Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish Toshkent "O'qituvchi" 1979 y.
20. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri.-T.: "Adolat".2004.-192 b.
21. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: "O'zbekiston", 1993.-192 b.

22. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur.T.: “Ma’naviyat”, 2008.
23. Vohidov R.J., Əshonqulov H.P. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.: 2006.
24. Zohidov L. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. T.: “Fan”, 1989.
25. Zohidova D. Aruz ilmi. T.: “Muharrir”, 2012.
26. Ibrat. Farfona tarixi –T.: “Kamalak”, 1991.-336 b.
27. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. T.: “Fafur Fulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”,1969.
28. Ismatullo Abdullo, Qodirqul Ro’zmatzoda Xojanazar Huvaydo. Devon. “YAngi asr avlodi”. Toshkent. 2005 y.
29. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi (“Xazoyin ul-maoniy” asosida). T.: “Fan”, 1983.
30. Yo’ldashev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: “O’qituvchi”, 1996.
31. Yo’ldoshev Q. Adabiyot saboqlari. 8. Umumta’lim maktablarining 8-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo’llanma. T.: “SHarq”, 2004.
32. Yo’ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo’ldoshbekov J. Adabiyot.7-sinf uchun darslik majmua. T.: “SHarq”, 2009.
33. Yo’ldoshev Q. O’qituvchi kitobi. Metodik qo’llanma. 7-sinf O’zbek adabiyoti. darsligi majmuasi uchun. T.; “O’qituvchi”, 1997.
34. Yo’ldasheva N., Murodova S. Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashning afzalligi. T.: “IPT va nashr ishlari bo’limi”, 2007
35. Karimov N., Mirzaev T., Nazarov B., Normatov U., Qosimov B. Adabiyot. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. T.: “Ma’naviyat”, 2002.
36. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., SHarafiddinov O. XX asr o’zbek adabiyoti. T.: “O’qituvchi”, 1999.
37. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o’zbek adabiyoti. T.: “O’qituvchi”, 2002.
38. Karimov H. Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari. T.: “YAngi asr avlodi” nashr., 2010.
39. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. T.: “F.Fulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1996.
40. Komilov N. Tasavvuf. Mavorounnahr-O’zbekiston.T., 2009 y.
41. Komilov N. Hizr chashmasi. “Ma’naviyat”. Toshkent. 2005 y.
42. Madiev O., Sobitova T. Xalq orzaki poetik ijodi. T.: “SHarq”, 2010.
43. Mallaev N. O’zbek adabiyoti tarixi. T.: “O’qituvchi”, 1976.
44. Mallaev N. Navoiy va xalq ijodiyoti. T.: “Fan”, 1982.
45. Rahmonov B. O’zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lu’fat. T.: “O’qituvchi”, 1983.
46. Rustamova A. So’z xususida so’z. T.: “YOsh gvardiya”, 1987.
47. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. T.: “Ma’naviyat”, 2003.
48. Siddiqov M., IOnusova Z., Hoshimova M.,Amaliy tilshunoslik va adabiyotshunoslik. O’quv qo’llanma. – Andijon. “Andijon nashriyot-matbaa”, 2004.

49. Siddiqov M. IOnusova Z. Til va adabiyot ma'rifati. Adabiyot. 2-kitob. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Turon-Iqbol" nashr., 2009.
50. Siddiqov M. Til va adabiyot ma'rifati. Muxtasar. 3-kitob. O'quv qo'llanma. Farrona, "Farrona" nashr., 2010.
51. To'ychiev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. T.: "Fan", 1985.
52. To'ychiev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. Toshkent "YAngi asr avlodi" 2011 y.
53. To'raev D. YAngi o'zbek adabiyoti. T.: "Fan", 2008.
54. To'xliev B. Adabiyot. Akademik liqey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: "O'qituvchi", 2005.
55. To'xliev B., Abdurahmonova B.. Adabiyot (majmua). Akademik liqey va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun darslik. T.: "CHo'lpon", 2010.
56. To'xliev B., Mirsamiova R., Ametova O. Adabiyot (majmua). Akademik liqey va kasb-hunar kollejlarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. T.: "CHo'lpon", 2010.
57. To'xliev B., Sarimsoqov B. Adabiyot. Akademik liqeylar uchun o'quv dasturi. T.: 2010
58. To'xliev B., Adabiyot o'qitish metodikasi (Amaliy va laborotoriya mashgulotlari). "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashr., 2012.
59. Umirov H. Adabiyot qoidalari. Akademik liqeylar uchun o'quv qo'llanma. T.: "O'qituvchi", 2011.
60. SHayx Muxammad Sodiq Muxammad IOsuf. Tassavvuf haqida tassavur. "SHarq" 2011 y.
61. O'zbek adabiyoti tarixi(besh tomlik) IV tom.-T.: "Fan", 1978.
62. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. (tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev). 1-,2-jildlar. T.: 2001, 2003.
63. Qodirov B. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va echimlar. T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashr., 2009.
64. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: "Xalq merosi" nashr., 2004.
65. Quronov D., Mamajonova Z., SHERalieva M. Adabiyotshunoslik atamalari lu'fati. T.: "Akademnashr", 2010.
- 66.** Faniev I. Fitrat dramalari poetikasi. T.: "Fan", 2005.
67. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T.: "Fan", 1996.
68. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. "SHarq". Toshkent 2007 y.
69. Homidiy H. Tassavvuf allomalari. "SHarq". 2009 .